

# Начальное образование

Boshlang'ich  
TA'LIM

11  
NOYABR  
2007 YIL

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmisht ranj ila,  
Aylamak bo'mas ado oning haqin yuz ganj ila.*

*Alisher Navoiy*

ILMIY-METODIK,  
AXLOQIY-TA'LIMIY  
OMMABOP JURNAL

MUASSIS:  
*O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi*

Bosh muharrir:  
Zuhra SHOKIROVA

TAHRIR HAY'ATI:  
Rustam Ahlidinov,  
Dilshoda Dadajonova,  
Erkin Malikov,  
Jo`ra Yo`ldoshev,  
Safo Matchonov,  
Tursunoy Soliyeva  
(mas`ul kotib),  
Mahfuza Zayniddinova,  
Xadicha Sotvoldiyeva,  
Nabiya Abduraxmonova.

JURNAL 1992 YIL  
YANVARIDAN  
CHIQA BOSHLAGAN.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Davlat Matbuot qo'mitasida 2006  
yil qayta ro'yxatga olinib, 0056  
raqamli guvohnoma berilgan

Manzilimiz: 700083, Toshkent,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.  
Telefon: 136-58-26  
Fax: (+998-712) 132-02-90  
E-mail: talim-uz@inbox.ru

## MUNDARIJA

**BOSH MUHARRIR MINBARI**  
Oshkora, odilona, haqqoniy va yagona  
Z.Shokirova.

2

**MATBUOT VA MA`NAVIYAT KUNLARI**  
Taassurotlar, xulosalar — yutuqlarimiz asosi  
S.Sunnatova, K.Girfanova.

4

**8 DEKABR — O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KONSTITUTSIYASI KUNI**  
Bosh qomusimiz  
R.Isoqov.

6

**18 NOYABR — O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT  
BAYROG`I TASDIQLANGAN KUN**  
Bayrog`im — ko`z qarog`im  
M.Zayniddinova.

8

**NAFOSAT TARBIYASI**  
Sen tug`ilgan kun  
A.Yo`ldosheva.

10

**ONA TILI VA O`QISH**  
Undosh tovushlar va harflar  
X.G`ulomova, X.Boqiyeva.

14

Mehrjon sayli  
T.O'rjava, A.Suyunov.

16

**НАЦИОНАЛЬНАЯ ПРОГРАММА — В ДЕЙСТВИИ**  
Я и закон  
E.Спирина

18

**MAXSUS TA'LIM**  
To`g`ri va ravon o`qishga erishish  
Z.Rozmetova.

22

**ODOB SABOQLARI**  
Ota nega o`z farzandiga tanbeh beradi?  
O.Mahmudov.

28

**MATEMATIKA**  
Qoldiqli bo`lish  
I.Rahmatullayeva.

30

# OSHKORA, ODILONA, HAQQONIY VA YAGONA

23 dekabr - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kuni

Saylovlar... ona Vatanimning, O'zbekistonimning saylovlar... Oshkora, odilona, haqqoniy, qonuniy saylovlar...

Bunda saylovchi awalo o'z ona yurti, kindik qoni to'kilgan pokiza tuprog'i, otanasi, farzandlari, yaqinlari, qarindoshurug'larining tinch, farovon hayotini o'yaydi. Shu bois ham chin yurakdan o'zi tanlagan, ishongan, orzu-umidlarini bog'lagan nomzodi uchun ovoz beradi. Unga hech kim: «Kel, do'stim, mana bu nomzod uchun ovoz beraylik», deya olmaydi.

Bunda saylovchi o'z yurtini, xalqini, Prezidentini sidqidildan quvontirishga harakatlar qilib, san'atda, sportda va boshqa sohalarda jasoratlar ko'rsatadi, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Hamyurtlarimiz Ruslan Chagayev, Rustam Qosimjonov, Muhammadqodir Abdullayev, Artur Gaymazov va boshqalarning jasoratlari shundan bo'lsa ne ajab!

Kuni kecha AQShning Chikago shahrida boks bo'yicha o'tgan jahon championatida g'olib chiqqan o'zbek yigitı Abbas Ato耶ev ham o'z saylanuvchisi - Prezidentiga sodiq ekanligini yana bir bor isbotladi. Namangan viloyati, Chust tumanidagi 3-maktab o'quvchisi Laylo Zayniddinova kosmik modellashtirish bo'yicha «Boyqo'nг'ir» kosmodromida tashkillashtirilgan 1-Osiyo ochiq championatida qatnashdi. 18 ta davlat vakillari orasidan g'olib chiqqan qizaloqqa Osiyo championi unvoni berildi.

Glier nomidagi maxsus musiqa akademik litseyining 4-sinf o'quvchisi Tohirjon Asqarov shu yil oktabr oyida Italiyada o'tgan yosh pianinochilarning o'ttizinchisi xalqaro ko'rnik-tanlovida g'olib chiqdi.

Hali yetti yoshga ham to'lмаган Ortiqjon Ne'matov maktabgacha yoshdagi bolalar o'tasida o'tkazilgan «Shaxmat championati - 2007»da O'zbekiston championi bo'ldi. Hozir u poytaxtimizdagи 75-maktabning 1-

sinfida o'qimoqda. Xalqaro musobaqaga –Turkiyaga jo'nab ketdi.

Qoraqalpog'istonlik o'n to'rt yoshli Azima Davlatmurodova milliy qo'shig'i bilan. oltinchi sinf o'quvchisi Sanjar Egamberdiyev chizgan rasmlari bilan «Yangi avlod» Respublika bolalar ijodiyoti festivalida g'olib bo'ldilar.

Bularning bari saylovchining saylanuvchisiga minnatdorchiligi, dil izhori ramzi emasmi?

Bunda saylanuvchi o'z Vatanini ulkan, go'zal, boyliklarga kon bo'lgani uchun emas, uni o'ziniki bo'lgani uchun sevadi. Bunda saylanuvchi O'zbekiston kelajagi, fuqarolar farovonligi, keksayu yosh, ahli-ayol sog'lig'i, yoshlaming puxta bilim olishi, ustozlar mehnatining qadrlanishini, shogird kamolini, oxir-oqibat, yurtning yanada gullab-yashnashini o'yaydi.

Bunda saylanuvchi xalq ishonchini oqlashga, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga, keksalar duosiyu yoshlar olqishini olishga harakat qiladi.

Shu yilning 23 dekabrida bo'lib o'tadigan saylovda xalqimiz o'z oldiga qo'yan ulug' maqsadlariga, qabul qilgan Konstitutsiyasiga, demokratik jamiyat qurish borasida amalga oshirayotgan islohotlariga sodiqligini dunyo oldida yana bir bor namoyish etadi.

*Mana, o'n olti yildirki, o'z xalqining xohish-irodasiga ko'ra ovoz berilgan saylanuvchi Vatan ozodligi va obodligi, insonlar mehnatini qadrlash, ta'lim sohasida ko'plab ezgu ishlarni amalga oshirdi. Uning tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «2004-2009 yillarga mo'ljalangan mакtab ta'lими rivojilantirish Davlat umummiliy dasturi» singari bebaҳo xujjalalar yuzaga keldiki, ular bizning har sohadagi yo'llimiz boshqalarniga sira o'xshamasligini, alohida, o'ziga xos yo'l ekanligini isbotladi.*

Mana, o'n olti yildirki, saylovchi uchun saylovlarining qonunchilik negizi vujudga keltirildi. Xalqimizning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishini ta'minlovchi saylov tizimi shakllandi va qonun bilan mustahkamlandi. Ya'ni, dunyodagi eng rivojlangan demokratik davlatlarda ham «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunimizga o'xshash manba deyarli yo'q. Bosh Qomusimizda ham saylovlarga bag'ishlangan alohida bob bor.

Qonunlarimiz doimo qabul qilgan xalqaro normalar va qoidalarga muvofiglashtirib kelinayotganligi va yaqinlashtirilayotganligi bilangina emas, balki mamlakatimiz xalqaro normalarning bajarilishini kafolatlaydigan hamma majburiyatlarni o'z zimmasiga olayotganligi bilan ham ro'yobga chiqarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasida: «Har bir inson irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatlaridan qat'iy nazar, ushbu deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinlikka ega bo'lishi zarur», deb belgilangan. Va ushbu me'yор Bosh Qomusimizning 18-moddasiga aynan mos tushadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda boshqa mamlakatlardagi singari ijro hokimiyatiga tobe bo'lмаган, xolis va mustaqil tuzilma - Markaziy saylov komissiyasi va boshqa tegishli saylov komissiyalari tashkil etildi hamda hozir ular samarali faoliyat olib bormoqda.

*Tabiiyki, hayotimizdagи ushbu muhim siyosiy tadbirga bizning ham jurnalxonamiz, olimlar, pedagoglar, ustozu muallimlar, ota-onalar, pedagogika oliygochlari talabalari hamda o'quvchilar, qolaversa, ijodiy jamoamiz ham befarq emas. Mushtariylarimizning har bir kalomi, tashrifи, qo'ng'irogi*

*ilhomimizga ilhom qo'shadi.*

- Hozir o'zimni nihoyatda baxtli his qilmoqdamani, - deydi bu yil Toshkent shahridagi 171-maktabning 11-sinfini a`lo baholarda bitirgan Elvina Giranova, - chunki saylovlarda ilk bor ishtirok etib, o'z konstitutsiyaviy huquqimni amalga oshiraman. Baxtiyorligimning yana bir boisi, men shu yilda O`zbekiston Jahon tillari universitetining ingliz filologiyasi fakultetiga Davlat granti asosida o`qishga qabul qilindim. O`qishlarim yaxshi. Ma'lumotlarga qaraganda, bu yil o'n sakkiz yoshga to'lgan va saylovda birinchi marta ishtirok etadigan saylovchilar soni 2 millionga yaqin ekan. Ayni damlarda saylov qonunchiligining o`ziga xos xususiyatlariغا doir bilimlarimni mustahkamlab bora-yapman. Men ham, albatta, o'zining vatanparvarligi, xalqparvarligi, odilligi, uzoqni ko'ra olishi, zukkoligi bilan el olqishini olgan nomzod uchun ovoz beraman.

Bobur Mirzo tug'ilgan yurt-Andijonning Shahrixon shahridan kelib, Toshkent Davlat texnika universitetida iqtisodiyot-menejment yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan Hayotbek Mamajonov dilidagilarni shunday ifoda etadi:

- Mustaqillik tufayli joriy etilgan test sinovlaridan muvaffaqiyatlari o'tib, hozirda Davlat granti asosida uchinchi bosqichda o'qiyapman, otasiz bo'lishimga qaramay, hech narsadan kamchiligm yo'q. Xalqimizning xohish-istagiga binoan saylangan Prezidentimizning biz - yoshlar uchun ko'rsatayotgan har tomonlama g'amxo'rligi bois a'lo baholarga o'qiyapmiz, turli konkurs-musobaqlarda ishtirok etayapman, eng muhimmi, qanchalik yaxshi o'qisam, shuncha oshirilgan miqdorda stipendiya olayapman. Asosiy maqsadga o'tadigan bo'lsam, men oliy ma'lumot olgach, o'z sohamda ishlash bilan birga yaqin atrofdagi maktablarning quyi sinf o'quvchilariga iqtisoddan bilim beraman. Niyatim - saylov kuni o'zim uchun eng ishonchli, eng sinalgan, eng munosib nomzodni tanlash.

Dil izhorini bayon qilishni istagan navbatdagi ishtirokchi - Toshkent tumanidagi 7-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Nazira Musayevadir.

- Inson o'z dilidagini aytishi kerak, shaharning bir chekkasidagi maktabda kamtarona faoliyat olib borayotgan

mendek bir oddiy o'qituvchiga o'zimizning kasb bayramimiz arafasida «Shuhrat» medali berildi. Bunday mukofotlarga har yili juda ko'plab hamkasblarim sazovor bo'lishadi. Iстиqlolga erishganimizdan buyon esa biz - ustoz va murabbiylarga bo'layotgan e'tibor, g'amxo'rlik, izzat-ikromning chek-chegarasi yo'q. Bularning bari uchun Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovdan behad minnatdormiz.

Toshkent Pedagogika kolleji o'qituvchisi Dilbar Karimova ijodkor ustozlardan. U saylovda xalqning dilidagilarni yurakdan his etuvchi, uzoqni ko'ra oluvchi o'tkir siyosatchi, tarixni ham, iqtisodni ham, ijtimoiyadolat mezonlarini ham yaxshi tushunadigan nomzod uchun ovoz berishni diliqa tugib qo'yan. Hozirgacha uning «Afsonaviy yulduzlar siri», «Buyuk karvon yo'li», «Xarita bilan ishslash» singari dars ishlasmalari jurnalimizda chop etildi.

«Maqsadim, mustaqil fikrli, qat'iyatlari, bilimdon, sog'lom bolalarni tarbiyalab yetishtiradigan talabalarga ustozlik qilish», - deydi u, - «Shu bois ham darslarimni iloji boricha talabalar ongiga to'liq yetkazishga, ishimga ijodkorlik bilan yondashishga harakat qilaman».

Fao mualiflarimizdan biri, jurnalimiz sahifalarida «Shaxmat darslari»ni olib boruvchi ustoz, nafaqadagi oly tofiali boshlang'ich sinf o'qituvchisi Eson Ali shunday deydi:

- O'zbekistonimizning kelgusida bundan-da gullab-yashnashiga, uning jahondagi eng nufuzli, ilg'or mamlakatlar safidan o'rin olishiga ishonaman va ovoz berish uchun odil, dono, o'z xalqining barcha tabaqalariga birdek mehr va g'amxo'rlik ko'rsatuvchi fidoyi insonni tanlayman, - deydi u. - Hozir 75 yoshdan oshgan bo'lsam-da, o'zimni bardam, tetik his qilmoqdamani, matbuotda o'z maqolalarim bilan tez-tez chiqishlar qilaman, poytaxtimizdag 185-maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga shaxmat sirlarini o'rgatmoqdamani. Niyatim, bir yildan so'ng shaxmat ustalari bo'lgan kichkintoylar guruhini tashkil etish. Va ularning katta sportda Vatanimiz sha'nini himoya qilishi.

\*\*\*

**Berlin - Brandenburg iqtisodiy konsullar birlashmasi boshqaruvi**

**raisi, Ingo Pets**ning fikr bildirishicha, «O'zbekiston mustaqil davlat sifatida shakllanishning murakkab yo'lini munosib ravishda bosib o'tdi. Bu borada yuzaga kelgan ulkan muammolarni juda qisqa davr ichida ijobiy hal eta oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov xalqaro hamjamiat bilan mustahkam savdo-iqtisodiy munosabatlarni o'rnatisht uchun ulkan ishlarni amalgalashdi.

O'laymanki, O'zbekiston bundan ham ziyyod taraqqiy etishi uchun salmoqli salohiyatga egadir. O'zbekiston rahbari mamlakat yoshlari uchun, ayniqsa, porloq kelajak uchun yaxshi asos - ta'lif olish yo'lida ko'p ishlarni amalgalashdi.

**Germaniya xalqlar universitetlari assotsiasiysi huzuridagi Xalqaro hamkorlik institutining Markaziy Osiyo bo'yicha loyihasi rahbari Uve Gartenshsger:**

«.... Biz yuqori malakali mutaxassislar o'qitiladigan, zamonaliv asbob-uskunalar bilan jihozlangan O'zbekiston kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari tizimini munosib ravishda baholadik. Biz O'zbekiston hukumatining mazkur keng qamrovli va muhim jabhani o'z vaqtida sarmoyalaganini olqishlaymiz. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, bugun O'zbekiston professional ta'lif tizimi eng yaxshi ishlab chiqilgan mamlakatlardan biri hisoblanadi».

Chet ellar vakillarini yuqoridagi singari ko'plab fikr-mulohazalari va yuksak baholari mamlakatimizning har bir vatanparvar fuqarosi qalbini olamolam faxrga, g'urur-iftixorga to'ldiradi. Ularni shu yurt uchun, shu xalq uchun, ulug' va dono rahbari uchun yanada munosib mehnat qilishga undaydi.

Umid qilamizki, 23 dekabr kuni saylanadigan nomzod jahon jamoatchiligi oldida obro'-e'tiborga ega, xalq uchun, millat uchun, Vatan uchun fidoyi, adolatli va zukko inson manfaatlari yo'lida tolmas kurashchi bir inson bo'ladi. Hamyurtlarimiz esa saylov to'g'risidagi qonunlarda ko'rsatilgan huquq va burchlariga to'liq amal qilgan holda qalb amri, ko'ngil xohishiga suyanib, ovoz beradilar. Bularning bari mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti, yoshlar kelajagi, xalq farovonligi uchun o'ta muhimdir.

# TAASSUROTLAR, XULOSALAR — REJALARIMIZ ASOSI



M.Nurinboyev fotosi

*Ikki qarama-qarshi qutb: yaxshilik va yomonlik, ma'rifat va jaholat, haqiqat va yolg'on azal-azaldan bir-biri bilan kurashib kelgan. Va, albatta, yaxshilik g'olib bol'gan.*

*Iyemoni butun, dili pok, ma'naviyati yuksak insonlar esa hamisha ezzulikning ustun kelishiga hissa qo'shganlar. Bu yo'lda ularga ommaviy axborot vositalari hamda milliy matbuotimiz kamarkasta bo'lib kelmoqda. Shu bois ham mushtariylarimiz har yili kuz oylarida o'tkaziladigan «Matbuot va ma'naviyat» kunlarini intiqliq bilan kutadilar.*

*An'anaga ko'ra bu yil ham Xalq ta'limi vazirligining 2007 yil 11 oktabrdagi 265-soni buyrug'iغا binoan «Matbuot va ma'naviyat kunlari» o'tkazilmoqda.*

*Vazirlilik muassisligida nashr etilayotgan 13 nomdag'i gazeta va jurnallar muharrirlari, respublikamizda chop etilayotgan bolalar nashrlari muharrirlari mushtariylar bilan yuzma-yuz uchrashib, qiziqarli-muloqotlar, savol-javoblar o'tkazishdi. Ayniqsa, Navoiy viloyatining Navoiy shahri, Qiziltepa, Karmana tumanlari, viloyat malaka oshirish instituti, «Axborot— resurs Markazi» da bo'lib o'tgan uchrashuvlar nihoyatda qiziqarli va yuqori saviyada tashkil etildi. Buning uchun Navoiy viloyat xalq ta'limi bo'limi mutasaddilariga katta minnatdorchilik bildiramiz.*

*Taassurotlar, taklif-mulohazalar shu qadar ko'pki, biz kirish so'zimizni qisqa qilib, jurnalxonlarning o'zlariga navbatni berdik.*

**Rustam Ostonov, Buxoro shahar xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i:**

— Ta'lim sohasida islohotlar jarayoni qizg'in kechmoqda. Zimmamizdag'i mas'uliyat nihoyatda katta. Faoliyatimizning samarasi davr talablariga to'laqonli mos bo'lishi lozim. Bu borada bizga pedagogik nashrlarning o'rni va ko'magi beqiyos. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan

pedagoglarimiz o'z matbuotlari orqali hamkasblarining erishayotgan yutuqlari, tajribalari, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari va uning bevosita davomi bo'lgan «Maktab ta'limi rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi», uning besh tamoyilli bo'yicha amalga oshirgan ishlaridan xabardor bo'ladilar. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning xalq farovonligi, farzandlar iqboli borasidagi Farmonlari, hukumat

qarorlarining mazmun-mohiyati, maqsadu ahamiyati, ulardan kelib chiqadigan vazifa va xulosalarni aniq va ravshan tushunib, bilib oladilar.

Ayniqsa, bu boroda bizga «Ma'rifat» gazetasi, «Til adabiyoti ta'limi», eng sevimli jurnalimiz «Boshlang'ich ta'l'im»ning ko'magi katta bo'lmoqda.

Istdirkki, kelgusida ham soha xodimlari uchun chop etiladigan gazeta va jurnallarimiz o'z sahifalarida eng dolzarb maqolalari bilan e'tiborda bo'lishsa. O'qituvchilarimiz ham o'z faoliyatini matbuot bilan uyg'un holda olib borishsa.

**Mavluda Jo'rayeva, Buxoro shahridagi 19-maktab direktori:**

— Biz har yili jamoamiz bilan mana shunday uchrashuvlarni sabrsizlik bilan

kutamiz. Ilm maskanimizda 557 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi. 8 ta boshlang'ich sinf mavjud. Ularning 5 tasida o'zbek, 3 tasida rus tilida ta'lim beriladi. Barcha o'qituvchilarimiz jurnal sahifalarida berilayotgan dolzarb materiallardan o'z ish faoliyatlarida foydalaniib kelishadi. Rusiyabon o'qituvchilarga mo'ljallangan materiallar ham juda qiziqarli, kelgusida barcha fanlardan eng yaxshi dars ishlasmalari ko'proq berilsa, ilg'or pedagoglar tajribalari yoritsa, shuningdek, ruscha sahifalar ham ko'paytirilsa.

**Sora Tosheva, «Buxoro muallimi» gazetasi bosh muharriri:**

— Barcha o'qituvchilar uchun uslubiy yordamlar, ta'lim tizimidagi yangiliklardan boxabar bo'lish, ilg'or uslub va usullardan foydalanish imkoniyatini o'qituvchiga to'la-to'kis bera oluvchi pedagogik nashrlarimiz jamoalari bilan yuzma-yuz muloqotlar juda ko'p samara beradi. O'qituvchiga nima kerak? U darslarda qanday materiallarga muhtojlik sezyapti? Mushtariy bugun shular haqida to'liq ayta olayapti. Bu — juda muhimdir.

**Z.Abdullayeva, Kogon tumanidagi 2-umumta'lim maktabi direktori:**

— Bilim maskanimiz bu yil o'zining 100 yoshini nishonlaydi. Bu yerda 457 nafar o'quvchi bilim oladi. Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan 7 ta boshlang'ich sinf mavjud. O'qitish jarayonida samaradorlikka erishish—bosh maqsadimiz. Bu borada pedagogik nashrlar ishimizga qanoat bo'layotir.

Yana shuni ham aytish kerakki, jurnalimizda chop etilayotgan aksariyat maqolalar nafaqat boshlang'ich sinflar, balki yuqori sinf o'qituvchilar uchun ham nihoyatda muhim va zarur. Istagim — tarbiyaviy soat darslari uchun mo'ljallangan maqolalar ko'proq yoritilsa.

**Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 15-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilarini jamoasi:**

— Prezidentimiz asarlarini o'qib-o'rjanayotgan bilimdon bolalar haqida va ularning ustozlari haqida o'qishni istaymiz.

**T.Patxullayev, tuman Xalq ta'limi bo'lumi mudiri,**

**N.Murodov, metodika mudiri:**  
— O'quvchilarni kasbga yo'naltirish, milliy qadriyatlarimiz, fanlarimiz zahmatkashlari, tayyor ko'rgazmali qurollar bo'yicha, kichik yoshdagil o'quvchilar hayotidan ibratlari voqealar bayon qilingan maqolalar, o'qish istagidamiz.

**Kogon tumanidagi 13-, 16-, 36-, 49-, G'ijduvon tumanidagi 1-, 5-, 8-, 35-maktablarda viloyat malaka oshirish institutida bo'lgan uchrashuvlarda mushtariylar ko'plab istaklar bildirishdi.**

**Qiziltepa tumanidagi «Zarmetan» qishlog'ida joylashgan 15-, 17-, 33-maktablarda bo'lib o'tgan qiziqarli uchrashuvlarda mushtariylarimizning, «Istiqlol g'unchalarisi», «Qalb quyoshi» jurnallari bosh muharriri U.Nurmatov, Nurota shahridagi 1-ixtisoslashgan maktab direktori o'rinnbosari M.Karimova, Karmana tumanidagi 21-maktab o'qituvchisi X.Azizova, 15-maktab o'qituvchisi M.Saidmurodova, Navoiy shahridagi 12-maktab o'qituvchisi Sh.Ochilovaning dil izhorlari shunday:**

— Tajribali ustoz-pedagoglar ish tajribasidan, «Sharq pedagogikasi durdonalari» rukni ostida qiziqarli materiallar o'qish istagimiz bor.

**Navoiylik o'qituvchilar:**

— Hozir shahrimiz o'qituvchilari orasida «Navoiy metodi» degan so'zga ko'p duch kelayapmiz. Joriy yilda biz shu metod asosida «Milliy g'oya va men» klubini tashkil etdik. Klub a'zolarning o'z madhiyasi, kuyi ham yaratilgan. Umidli yoshlar, salohiyatli o'quvchilarimizdan Saodat Shamsning tabobatga doir birinchi, milliy arxitektura va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga doir ikkinchi kitobi nashr dan chiqdi. Saodat Xo'jamovning esa «Bobomning hikoyalari yohud Nurota tarixidan ta'rifiy lavhalar» kitobi bosildi. Bularning bari faxrga loyiq voqealar va nashr larimizning ta'siridandir.

**A.Azimov, viloyat XTB boshlig'ining birinchi o'rinnbosari:**

— Bolalar tafakkurini o'stirishga, ularni mustaqil, mantiqiy fikrlashga chorlovchi materiallar berilsa. Chunki hozirgi davr bolalari nihoyatda talabchan va zehnli.

**K.Yo'Idoshev, viloyat malaka oshirish instituti rektori:**

— Pedagogik nashrlar vakillari bilan o'tkaziladigan mana shunday muloqotlar, bahs-munozaralar, sav-javoblar, uchrashuvlardan juda mammunmiz. O'qituvchi jurnalistlar bilan yuzma-yuz muloqotda o'z fikrini dadil aya oladi. Biz o'z nashrimizda shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, ular asarlaridan namunalar bosilishini taklif qilamiz.

**T.Bozorova, Karmana tumanidagi 25-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi:**

— Inkluyiz ta'limga oid maqolalar ko'paytirolsila.

**G. Amirov, Samarqand viloyati XTB bo'lim boshlig'i:**

- Har nashrning o'z o'rni bor, ularning barchasi kasbiy faoliyatimizda ijobji ta'sir ko'rsatadi. Istdirimki, kelgusi yilda ham «Boshlang'ich ta'lim» jurnalimiz bundan-da qiziqarli, o'qishli, dolzarb maqolalarga boy bo'lsa.

**L.Jo'rayeva, Narpay tumanidagi 33-maktabning boshlang'ich sinflar bo'yicha ilmiy bo'lim mudiri:**

— «Boshlang'ich ta'lim»

jurnalimizdan, undagi materiallardan doimo ko'nglimiz to'ladi, bizga ma'qul. DTSga asoslangan yangi dars ishlanmalaridan ko'proq kutamiz.

**K.Davronova, Paxtachi tumanidagi 10-maktab direktori:**

— Bilim maskanimiz bu yil viloyat miqyosida «Eng ko'rkan maktab» ko'rik-tanlovi g'olibi bo'lib, televizor va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Umummilliy dastur asosida buyuk ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning bari — yosh avlod kelajagiga xizmat qiladi. Aynan sohamizga doir eng kerakli materiallarni pedagogik nashrlardan topayapmiz.

**J.Sayfiddinova, Paxtachi tumanidagi 11-maktab direktori:**

— «Boshlang'ich ta'lim» jurnalida yosh kadrlar uchun ish rejalarini qanday tuzish kerakligi haqida «Sinfdan tashqari o'qish»ga doir maqolalar, matnlar berilsa.

**N.Tongotarova, Paxtachi tumanidagi 6-maktab o'qituvchisi:**

— Biz, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, avvalo, «Boshlang'ich ta'lim» jurnali tahririyatiga minnatdorchiligidimizni bildiramiz. Nashrning har sonini uslubiy birlashma yig'ilishida muhokama etamiz. Ayniqsa, matematika fanidan biz uchun katta yordam beruvchi maqolalar yoritilayotgani ma'qul bo'layapti. Buning uchun barchamiz minnatdormiz.

**U.Hakimov, Kattaqo'rg'on tumanidagi Norjo'rayev nomli mahalla oqsoqoli:**

— Jurnalda maktab, mahalla, oila hamkorligida olib borilayotgan ishlar, yoshlarning tarbiyasi, kiyinishi, muomala madaniyati borasidagi materiallarni berishingizni istaymiz.

\*\*\*

Donolarning bir gapi bor. Yuz bora berilgan quruq va'dadan ko'ra, bir bora amalda bajarilgan ish afzal. Shu bois, biz tahririyat xodimlari jurnalxonlarning bildirgan talab va istaklarini amalda bajara olsak, o'zimizni baxtiyor sezamiz. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, «Ma'naviy sog'lom bo'lgan millatgina sog'lom avlodni tarbiyalay oladi».

*(Davomi kelgusi sonda.)*

**S.SUNNATOVA, K.GIRFANOVA, muxbirlarimiz.**

# BOSH QOMUSIMIZ

(bayram tadbiri ssenariysi)

«Konstitutsiya» davlatimizda qonun ustuvorligini ta'minlab turadi. Uning ustuvorligi har birimizdan ulkan mas'uliyatni, ya'ni - Konstitutsiya va Qonunlarni bilishni, ularga amal qilib yashashni taqozo etadi. U asosiy hujjat - Bosh qomusimiz hisoblanadi.

Sinf xonasi bayramona bezatilgan. Xattaxta yoniga bir qiz va va bir o'g'il bola boshlovchilar qo'llarida tabrik jildlari ko'tarib, chiqib kelishadi.

**1-boshlovchi:** — Assalomu alaykum, qadrli o'quvchilar! Mo'tabar ustozlar va aziz mehmonlar! O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan bayram tadbirimizga xush kelibsiz.

**2-boshlovchi:** — Assalomu alaykum! Ma'lumki, bugungi kunda mакtablarimizning har bir sinfida bosh Qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rgatuvchi darslar o'tilyapti. Unda bolalar Konstitutsiya so'zi «tuzish», «tuzuk», «nizom», «tuzilish», «yaratilish» degan ma'nolarni anglatishini bilib olganlar.

**1-boshlovchi:** To'g'ri aytasan. Bizning zukko o'quvchilarimiz Bosh qomusimiz haqida bilishlari shart bo'lgan bilim va ma'lumotlarni, huquq va burchlarini o'z yoshlariga munosib ravishda o'zlashtirib borishmoqda.

**2-boshlovchi:** — Darvoqe, bundan 15 yil muqaddam xalqimiz irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini o'zida to'la aks ettingan, muhim siyosi, huquqiy hujjat sifatida jahonga yangi, istiqboli porloq mustaqil davlat dunyoga kelganining o'ziga xos isboti sifatida Bosh qomusimiz qabul qilindi.

**1-boshlovchi:** — O'zbekiston Konstitutsiyasi bizning mustaqilligimizni huquqiy jihatdan ta'minlovchi asosiy qonun hujjati bo'lgani uchun ham biz 8 dekabrni alohida ardoq va mammuniyat bilan bayram qilamiz.

**2-boshlovchi:** — Endi navbatni o'quvchilarga beraylik. Bosh qomusimizni ular qanday ta'riflashar ekan.

Tadbir o'tkazilayotgan davra to'riga chiroli maktab formasidagi o'quvchilar chiqib kelishadi.

**1-o'quvchi:**

— Qani, menga ayt, oshnam,  
Bugun qanaqa bayram?

**2-o'quvchi:**

— Konstitutsiya kuni,  
Kim ham bilmaydi buni?

**1-o'quvchi:**

— O'z haqqi-huquqingni  
Bilasanmi, o'rtoqjon?  
Ayt-chi, Konstitutsiya  
Qabul qilingan qachon?

**2-o'quvchi** (qo'lida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» kitobini ushlagan holda):

— Bu kitobda hammasi  
To'liq etilgan bayon.

**3-o'quvchi:**

— Prezident bobomiz  
Bizga g'amxo'r, mehribon  
Yurt tinchligin ko'zlaydi,  
Xalq baxtidan so'zlaydi.

**4-o'quvchi:**

— O'zbekiston qo'ynda  
Har bir tuman, viloyat,  
Kundan-kunga yashnaydi,  
Kamol topar, tiklar qad.

**5-o'quvchi:**

— O'zbekiston tayanchi  
Qurolli kuchlari bor.  
U — xalqining suyanchi,  
Dushman qutirar bekor.

**6-o'quvchi:**

— Mustaqil O'zbekiston  
Dadil tutib o'zini,  
Bormoqda o'z yo'lidan,  
Aytmoqda o'z so'zini.

**7-o'quvchi:**

— Baxt berdi insonlarga  
Onajon — O'zbekiston  
U yuz tutdi jahonga,  
Bo'ldi dovrug'i doston.

O'quvchilar «Sog'lom avlod qo'shig'i»ni ijro etishadi.

**1-boshlovchi:**

— Rahmat, bolalar, chiroli ijrolar uchun. Qani, endi aytинг-chi, Konstitutsiyamizda nechta bo'lim, nechta

bob va nechta modda bor?

**2-boshlovchi:** — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 24 bob, 128 ta moddadan tashkil topgan.

**1-boshlovchi** (bolalarga qarata):  
— Konstitutsiyamizga qanday g'oyalarni singdirilgan?

Davraga bir qancha o'quvchilar chiqib, quyidagicha javoblar beradilar.

**1-o'quvchi:** — Konstitutsiyamizning «muqaddima»sidan to oxirgi misrasigacha inson manfaatlari haqida, uning farovon turmushi uchun ko'rsatilishi muqarrar g'amxo'rlik to'g'risidagi g'oyalarni singdirilgan.

**2-o'quvchi:** — Insonning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari Konstitutsiyamiz boblarida o'z ifodasini topgan. O'quvchilar navbat bilan dona-dona qilib, qog'ozga yozib olgan javoblarni o'qib berishadi.

— Shaxsiy huquq va erkinliklar. (VII bob).

Ular asosan quyidagilardan iborat:

— Yashash huquqi. (24-modda);  
— Erkinlik va shaxsiy daxsizlik huquqi (25-modda);

— Fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi (29-modda);

O'z huquq va manfaatlari dahldor bo'lgan hujjatlar bilan tanishib chiqish huquqi (30-modda);  
— Vijdon erkinligi (31-modda).

**1-o'quvchi:**  
(qo'lida O'zbekiston Konstitutsiyasi kitobi):

— Ozod, erkinlikning  
Ramzi — bu kitob.  
Unda aks etgandir  
Haq-huquqimiz.

**2-o'quvchi:**

— Yo'limiz yoritar  
Misoli oftob.  
Qo'lida baland tursa  
Agar tug'imiz.

**3-o'quvchi:**

— Millionlar taqdiri  
Unda mujassam.  
Qomuslar qomusi,  
Deydi xalqimiz.

**4-o'quvchi:**

— Er sharin yoritdi  
O'zbekiston ham.  
Yurtga fido bo'sak,  
Kular baxtimiz.

*Sho'x musiqa yangrab, raqs ijro etiladi.*

**1-boshlovchi:** — Turmushimiz-ning farovonlashuvida, Vatanimiz va xalqimiz tarixida Konstitutsiyamizning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zero, unda xalqimizning huquqiy demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyati, erkin va farovon hayat qurishdek orzu-niyati o'z ifodasini topgan.

**2-boshlovchi:** — Bolalar, bilasizlarmi, insoniyat yaralganidan beri o'z huquq va erkinliklari kafolatlari to'g'risida bosh qotirib keladi. Inson huquqlarini himoya qilish chinakam xalqaro hamkorlikni o'rnatish va mustahkamlash borasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi 1945 yil 24 oktyabrdan boshlab doimiy kuchga kigan.

**1-o'quvchi:**

— Mayoq bo'lding elimga,  
Maqom berding tilimga.  
Faxr to'ldi dilimga,  
Sha'nim, oru nomusim,  
G'ururimsan — Qomusim.

**2-o'quvchi:**

— Jamlab, tizib bir ipga,  
Yo'lim solding qolipga.  
Hayot tushdi tartibga.  
Ahdim, oru nomusim,  
Bebahoim — Qomusim.

**3-o'quvchi:**

— Huquq, burchim aks etgan,  
Har satri pishib etgan.  
Maqsad, g'oyamiz yotgan.  
Lafzim, oru nomusim,  
Muqaddasim — Qomusim.

**4-o'quvchi:**

— Tunda chaqnagan chaqin,  
Yurakda yongan yolqin.  
Qalbda jo'sh urgan to'lqin.  
Baxtim, oru nomusim,  
Iftixorim — Qomusim.  
Davraga 4 o'quvchi chiqib, tadbirni quyidagi so'zlar bilan davom ettiradilar.

**1-o'quvchi:** — Bolalar huquqlari to'g'risidagi qonunlarni o'zida mujassamlashtirgan xalqaro hujjatlar

ham bor. 1989 yil 20 noyabrda BMT Bosh Assambleyasida bir ovozdan qabul qilingan. «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya ana shunday hujjat hisoblanadi.

**2-o'quvchi:** — Darhaqiqat, ushu Konvensiya 1990 yil 2 sentyabrda kuchga kigan. O'zbekiston Respublikasi unga 1992 yil 9 dekabrda, ya'ni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning ertasigayoq qo'shilgan.

**3-o'quvchi:** — «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya dunyoning barcha mintaqalaridagi xalqlar uchun teng ahamiyatga ega, uning asosiy maqsadi biz — bolalar manfaatlarini mumkin qadar himoya qilishdan iboratdir.

**4-o'quvchi:** — Bir so'z bilan aytganda, bu Konvensiyani o'ziga xos «Bolalar Konstitutsiyasi» deb ham hisoblash mumkin. Chunki unda bolalar huquqlari va erkinliklari kafolatlangan, burchlari ifodalangan.

*O'quvchi qizlar ijrosida raqs tomosha qilinadi.*

**1-boshlovchi:** - Darhaqiqat, «Bola huquqlari to'g'risida»gi bu Konvensiyani chindan ham «Bolalar Konstitutsiyasi»ga qiyoslash mumkin. Konstitutsiyaga amal qilish esa vatanparvarlikdan dalolat beradi. Zero, unda Vatan, xalq va millat manfaatları ifoda etilgan.

**2-boshlovchi:** - Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek: «... har qanday davlatning yuzi, obro'-etibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir».

**1-boshlovchi:**  
- Ajib topgan unda buyuk g'oyamiz,  
Zabt etmoqni maqsad qilgan qoyamiz.

Belgilangan huquq, burch, himoyamiz,

Baxtim qomusi - Konstitutsiyam.

**2-boshlovchi:**

O'zbek elin faxri, ulkan nufuzi,  
Asosiy tamoyil, chin, asl yuzi.  
Yurakdan bitilgan har satri, so'zi,  
Baxtimiz qomusi - Konstitutsiyam.

**1-boshlovchi:**

- Yo'lchi yulduz tuydik dildan biz uni,  
Organsak kam, takror-takror har kuni.



Eng xalqchil,  
muqaddas, davlat qonuni,  
Baxtimiz qomusi - Konstitutsiyam.

**2-boshlovchi:** - Aziz tadbirimiz qatnashchilari! O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 15 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan «Qomusimiz - nomusimiz» deb nomlangan bayram tadbirimiz nihoyalab boryapti. Barchalaringizga tashrifingiz, ishtirokekingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.

**1-boshlovchi:** - Yurtimiz obod, elimiz shod, osmonimiz musaffo bo'lsin!  
Ona O'zbekistonimiz gullab-yashnayversin.

**2-boshlovchi:** - Xayr, salomat boling.

*Musiqa sadolari ostida tadbirga yakun yasaladi.*

Ravshan ISOQOV.

## **BAYROG'IM – KO'Z QAROG'IM**



*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasida: «O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzları: Bayrog'i, Gerbi va Madhiyasiga ega», deb yozib qo'yilgan.*

*Biz quyida ana shunday ramzlardan biri — mustaqil O'zbekistonimizning bayrog'i xususida suhbatlashamiz. Bugungi kunda milliy g'ururga aylangan Davlatimiz Bayrog'ining ramziy tasnifini har birimiz tasvirlab bera olamizmi? Uning ranglari nimalarni anglatadi? Yarim oy va 12 ta yulduzlar tasviri-chi? Bayrog'imiz binolarning qay tomoniga, qanday qiyalikda, boshqa davlatlarning bayroqlari bilan qay yo'sinda ornatilishini bilamizmi? Vaholanki, bu kabi savollarning ochiq qolishi mumkin emas. Shu bois boshlang'ich*

*sinf o'qituvchilar ham davlatimiz ramzları qabul qilingan kunlarni nishonlash chog'ida ularning mohiyati haqida o'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'ularini jo'sh urdiradigan ohangda so'zlab berishlari lozim, deb hisoblaymiz.*

— O'zbekiston, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, kelajagi buyuk, qudratli davlatdir. Bu g'oya mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq qabul qilingan davlatimiz ramzları va timsollarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, 1991 yil 18 noyabr kuni qabul qilingan Bayrog'imizda xalqimizning xohish-istagi, kuch-irodasi, aql-salohiyati, milliy g'ururi, ko'tarinki kayfiyati aks etgan. Shu kuni Respublikamizda o'tkaziladigan tadbirlar, maktablardagi o'quv mashg'ulotlari Davlat Bayrog'ining tantanali sur'atda ko'tarilishi va qatnashchilar barchasining o'ng qollari chap ko'ksilari ustiga qo'yilib, Madhiyamizni kuylashdan boshlanadi. Bu—Davlat ramzlariga bo'lgan hurmat belgisidir. Siz ham, aziz bolajonlar, Madhiyamiz so'zlarini yoddan bilishingiz, Bayrog'imiz, Gerbimiz haqida ham mukammal tushunchalarga ega bo'lisingiz lozim. Ana shunda siz el sevgan ajoyib vatanparvar bo'lib yetishasiz.

Bugungi suhbatimiz Davlatimiz Bayrog'i haqida ekan, qulq tuting, u haqda mana nimalarni bilishingiz lozim?

Hozir ta` kidlaganimimdek, O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining navbatdan tashqari VII

sessiyasida 1991 yil 18 noyabr kuni tasdiqlangan. Davlat Bayrog'imiz O'zbekiston hududi azal-azaldan mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqlikni anglatadi. U o'zida Respublikaning milliy-madaniy an'analarini mujassam etgan.

Hamma davrlarda ham davlat ramzları muqaddas sanalgan, ajodolarimiz ramzlar va timsollarga e'zoz va hurmat bilan qaraganlar. Sohibqiron bobomiz Amir Temur davrlarida bunday ramzlar, ayniqsa, Bayroq katta ahamiyat kasb etgan. Temuriylar saltanati bayrog'i tiriklik ramzini anglatuvchi moviy rangda bo'lgan. U Amir Temurning eng kuchli, dovyurak, alpqomat, ishonchli askarlari tomonidan qo'riqlangan. Ana shuning o'zidan ham bayroqning qanchalar muqaddas, nechog'li ahamiyatli ekanini anglash mumkin.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimizning milliy g'ururiga aylangan Davlat Bayrog'ining ramziy tasnifini har biringiz tasvirlab bera olasizmi? Uning ranglari nimalarni anglatadi? Yarim oy va 12 ta yulduzlar tasviri nimalarni ifodalaydi? Bayrog'imiz binolarning qay tomoniga, qanday qiyalikda, boshqa davlatlarning bayroqlari bilan qay yo'sinda ornatilishini bilasizmi? Vaholanki, «O'zbekiston Respublikasi Davlat

*Bayrog'i to'g'risida»gi Qonunning 13-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda yashaydigan barcha shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'ini hurmat qilishlari shart», deb yozib qo'yilgan.*

«Hurmat qilinishi shart» tamoyiliiga ko'ra, dastlab Bayroqning ranglari xususida to'xtalamiz. Bayrog'imizdag'i moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan, musaffo osmon va zilol suv - obihayot ramzidir. Bu rang, timsollar uchun ajratiladigan ranglar tili bilan aytganda yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni bildiradi.

Bayroqdagi oq rang poklik, beg'uborlik, orzu va xayollarning tozaligi, ichki go'zallikka intilish timsoli bo'lib, bebafo tinchligimiz ramzi hisoblanadi, nurafshon kunlarimizning dalolati sanaladi.

O'lcamizda bahor kelishi bilan yasharish, yangilanish davri boshlanadi. Xuddi shuningdek, Bayrog'imizdag'i yashil rang ham tabiatimizning yangilanish ramzidir. Bu rang navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Bayrog'imizda yana qizil chiziqlar ham borki, ular vujudimizda jo'shib oqayotgan qonimiz. Ular hayotiy qudrat imoqlaridir.

Bulardan tashqari Davlatimiz Bayrog'ida yarim oy va 12 ta yulduzlar tasviri ham bor. Ular nimalarni anglatadi? Oy tasviri tarixiy an'analar ramzidir. 16 yil avval qo'lg'a kiritgan mustaqilligimiz ham ana shu ramziy ma'no ifodasidir. Yana 12 ta yulduz tasviri ham xuddi shunday—tarixiy an'analarimiz, qadimgi Quyosh yilhomamizga bevosita aloqadordir. Demak, bu tasvirni o'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunishimiz lozim.

Bolalar, mana Bayrog'imizdag'i ranglarning ramziy ma'nolari bilan tanishib oldingiz. Bu Bayroqning siz maktabimiz binosi peshtoqida, uyingiz bilan mакtab oralig'ida uchraydigan korxonalar, tashkilotlar binolari peshtoqlarida hilpirab turganiga ko'zingiz tushgan. Lekin bu nimani anglatadi, nima uchun Bayroqlar bu tarzda o'rnatiladi, deb o'ylab ko'rmagan bo'lisingiz tabiiy, shundaymi? Televizor orqali sport ko'satuвlarini tomosha qilganingizda boks tushuvchi yoki shaxmatchi akalaringiz hammaning ko'z oldida, hammaning guvoхligida yurtimiz bayrog'ini o'pib, maydonga tushganlarini ko'ргansiz. Ularning bu harakatini qanday tushunmoq kerak?



Ularning bu harakatini yurtiga, Vataniga, Prezidentiga, xalqiga, Bayrog'iga bo'lgan hurmat, faxr-iftixon tuyg'usi deb, milliy g'urur deb tushunmoq kerak. Axir ana shu Bayroq butun bir davlatni, uning nimalarga qodirligini bildirib turuvchi timsol-ku. Davlatimiz rahbari Islom Abdug'aniyevich Karimov bu haqda mana shunday deganlar:

**«Davlatimiz ramzları- Bayroq, Tamg'a, Madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va**

*intilishlarini o'zida mujassam-lashtiradi. Mana shu ramzlarni e'ozlash o'zining qadr-qim-matini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning ham, o'z Vatanining ham shon-shuhratini oshiradi».*



ma'lumotlar berish lozim.

—Aziz o'quvchilar! Davlatimiz Bayrog'inining qanday o'rnatilishi ham amaldagi qonunlar asosida bo'lishi kerak. Siz nazaringiz tushgan bayroqlar o'sha binolarning qayeriga, qanday o'rnatilgani bilan hech qiziqib ko'rganmisiz? Oralarda shamol, yomg'ir, quyosh ta'sirida rangi o'chgan bayroqlarga ham ko'zingiz tushganmi? E'tibor bermagan bo'lsangiz, endi kuzating. Yaxshilab tushunib oling: Bayroq matosining bir tomoni dastaga mahkamlanadi, binolarning peshtoqlariga Bayroqni to'g'ri o'rnatish, rangi o'chib, xiralashib qolgan bayroqlar yangisiga almashtirib turilishi lozim. Rahbarlarning xizmat xonalarida Bayroq maxsus taglik moslamasida tik holatda turishi kerak.

Binolarning old tomoniga boshqa davlatlarning bayroqlari bilan birga o'rnatilganda esa bizning Bayroq o'ng tomonda alohida, o'zga davlatlar bayroqlari chap tomonidan lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosidagi tartib asosida, bir xil balandlikda joylashtirilgan bo'lishi lozim.

Bayrog'imizning ranglari, sxematik tasvirlari qonunda belgilanganidan birozgina bo'lsa ham boshqacha bo'lishi mumkin emas. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Davlat

Bayrog'i to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasida: *O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog'i va uning tasviri, katta-kichikligidan qat'iy nazar, hamma vaqt ushbu Qonunga ilova qilinayotgan rangli va sxematik tasvirga aniq mos bo'lishi kerak»* deb ta'kidlab qo`yilgan. Mana, qarshingizda mening stolim ustida ham maxsus taglikka o'rnatilgan Bayrog'imiz turibdi. Ko'ryapsizmi, u stolning eng old qismida. Chunki u barchangizga ko'rinib turishi ham kerak. Qolaversa, Bayroq stolim ustidagi —qolgan barcha narsalardan ustunlikka ega.



Bolalar, Davlat ramzlariga bo'lgan hurmatimizni, eng avvalo, ular haqidagi qonunlarni o'rganishdan boshlashimiz kerak ekan. Va bu qonunlar Bayrog'imiz haqidagi bilimlarimizni mustahkamlashda eng muhim omil hisoblanadi.

Shundan so'ng 1-2 o'quvchilar avvaldan tayyorlangan Vatan madhini tarannum etuvchi yohud davlatimiz ramzları haqidagi she'larni chiroyi, ohangdor qilib yod o'qisalar, dars yana ham maqsadli yakun topadi.

*Vatanim shon-shuhrati,  
Salohiyat, qudrati,  
Mustaqillik nusrati  
Aks etgan Bayrog'imda,  
Bayrog'im – ko'z qarog'imda.*

*Ranglarining ma'nosi,  
Xalqning ruhi, navosi,  
O'zbekiston havosi –  
Aks etgan Bayrog'imda,  
Bayrog'im – ko'z qarog'imda.*

*Men shu Vatan erkasi,  
Men shu Vatan ertasi.  
Alpqomat yelkasi –  
Aks etgan Bayrog'imda,  
Bayrog'im – ko'z qarog'im-da!*

**Mahfuza ZAYNIDDINOVA.**

# SEN TUG'ILGAN KUN

(4-Sinflar uchun)

**Aziza Yo'idosheva** — Toshkent shahridagi 160-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi. Ijodkor, iqtidorli, izlanuvchan pedagoglardan. Nashrimizning faol hamkor. Ish tajribasi tumanda va respublikada ommalashgan. 2002 yildan buyon O'zbekiston televide niyesi «Yoshlar» kanalining «Yangi avlod» ko'sratuviga o'z o'quchilarini tayyorlab, qatnashtirib keladi. 2003 yilgi «Yil o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining g'olibasi, 2005 yili esa Yakkasaroy tuman «Yosh pedagoglar maktabi» sardori bo'lgan.

Quyida muallimaning «Sen tug'ilgan kun» nomli ssenariysi bilan tanishasiz.

**Mavzu:** «Sen tug'ilgan kun».

**Maqsad:** O'quvchilarga etik, estetik tarbiya berish. Doimo bir-birlarini yaxshi va yomon kunlarida qo'llab-quvvatlash, mehr-oqibatli bo'lismga o'rnatish. Sinfdoshlarning keyinchalik ham yig'ilib, mana shunday davralarda bir-birlarining tug'ilgan kunlarini nishonlashga odatlantirish.

**Jihozlar:** Chiroqli harflar bilan yozilgan «Sen tug'ilgan kun» lavhasi ilingan zal rangli sharlar, bayroqchalar bilan bezatilgan. Atrofga kuzgi gullardan yasalgan guldastalar to'shagan. Kitob shaklidagi kattakon tortning bir tarafiga «10», bir tarafiga tug'ilgan kuni bo'layotgan o'nta o'quvchining ismlari yozilgan. Sovg'alar, guldastalar. Musiqa markazidan ona Vatanni, baxtli bolalikni, nurli kelajakni madh etuvchi qo'shiqlar taraladi.

**Kechaning borishi:**

*Chorlov musiqa yangraydi.  
Yangroq musiqa sadolari ostida bir  
jarchi - o'quvchi:*

— 10 yoshdag'i o'n bola—

Hamma ishi zo'r bola!

Tug'ilgan bir faslda,

Tantana bugun bizda!!! — deb jar soladi.

*Hamma o'quvchilar «Baxtli bolalik»  
qo'shig'in kuylab, qarsak chalib,  
davraka chiqib keladilar.*

\* \* \*

**Sherzod:** — Assalomu alaykum, aziz ustozlar, ota-onalar hamda mehmonlar!

**Dilafro'z:** — Bugun sinfimizda katta tantana. Kuz faslda tug'ilgan sinfdosh o'g'il-qizlarning tug'ilgan kunlarini nishonlayapmiz.

**Dilafro'z:** — Qani bo'lmasa, bayramimiz qahramonlarini o'z davramizga chorlasak.

«10 yoshdag'i o'n bola» qo'shig'i sadolari ostida davraning o'tasidan bir qo'llarida rangli tasmalar, bir qo'llarida turli-tuman sharlar ko'targan o'g'il va qizlar juft-juft bo'lib kirib keladilar, tomoshabinlarga ta'zim qilib, o'zlari uchun maxsus tayyorlangan stol atrofiga o'tiradilar.

**Sherzod:** — 10 yoshdag'i o'n bola!!!

**Hamma:** — Hamma ishi zo'r bola!!!

**Sherzod:** — 10 yoshdag'i o'n bola!!!

**Hamma:** — Hey!

**Sherzod:** — Hamma ishi zo'r bola!!!

**Hamma:** — Hey!

**Dilafro'z:** — Tug'ilganlar bir kunda,

**Hamma:** — Hey!

**Dilafro'z:** — Teran ma'no bor bunda.

**Hamma:** — Hey!

**Sherzod:** — Ularning o'n yoshida.

Xumo qushi boshida.

**Dilafro'z:**

— Oyoq-qo'lchaqqondir,

Ustozlarga yoqqandir.

Naqorat

**Sherzod va Dilafro'z:** — Ey-hey!

**Hamma:** — Ey-hey!

Istiqlolning timsoli,

Teng kulgandir iqboli.

**Sherzod:** — Jovlon urar o'novlon.

**Hamma:** — Hey!

**Sherzod:** — Besh qizaloq, besh o'g'lon.

**Hamma:** — Hey!

**Dilafro'z:** — Kelajagi porloqdir,

**Hamma:** — Hey!

**Dilafro'z:** — Ilm-fanga chanqoqdir,

**Hamma:** — Hey!

**Sherzod:** — Ularning o'n yoshida Xumo qushi boshida.

**Dilafro'z:**

— Oyoq-qo'lchaqqondir, Yurtboshiba yoqqandir.

Naqorat

**Sherzod va Dilafro'z:** — Eh-hey!

**Hamma:** — Eh-hey!

Istiqlolning timsoli  
Teng kulgandir iqboli.

Hey-hey-hey

He-he-he-he-hey!!!

*Davraka o'quvchilar chiqib, bugungi  
bayram haqida o'z fikrlarini bildiradilar:*

**Abduaziz:** — Maktabga kelanimizdan boshlab bir faslda tug'ilgan bolalarning tug'ilgan kunlarini birgalikda nishonlash an'anaga aylangan. Bugun biz kuz faslda tug'ilgan sinfdoshlarimizning tavallud kunlarini nishonlayapmiz.

**Dilafro'z:** — Bugungi tabrik kechamiz har doimgidan farq qilyapti. Sababi sinfdoshlarimiz bugun hayotlarida ilk bor o'zlarining o'n yoshlik to'ylari, ya'ni yubileylarini nishonlashmoqda. Bu ham biz uchun yangilik bo'ldi.

**Azamat:** — Men sinfdoshlarimni tug'ilgan kunlari bilan tabriklayman. Ular har doim mana shunday quvnoq, baxtiyor bo'lib yurishsin. Bunday 10 yoshlarining o'ntasini nishonlash ularga nasib etsin.

**Nilufar:** — Biz sinfdoshlarimizni tabriklash uchun tayyorgarlik ko'rib keldik. O'zimiz she'l yozib, uni qo'shiq qilib kuylab, raqsga ham tushib beramiz.

*O'quvchilar o'zlarini tayyorlab kelgan sovg'alarni (yumshoq o'yinchoqlarni)*

*topshirib, «Tug'ilgan kun» qo'shig'ini o'zbek, rus, ingliz tillarida ijro etadilar.*

*Qo'shiq tugagach, hamma o'quvchilar keyingi musiqiy sovg'aga tayyorgarlik taraddudini ko'ra boshlaydilar.*

**Sherzod:** — O'quvchilar o'z sinfdoshlarini tabriklash uchun sovg'alar tayyorlab kelganlar. Endi navbatni ularga bersak.

*O'quvchilar sovg'alarini topshiradilar.*

**Dilafro'z:** — Hozir tabrik so'z navbatini Vazmina, Farangiz hamda Durdonalarga beramiz. Ular o'z sinfdoshlarini qutlab, «Tarona» qo'shig'ini raqs bilan ijro etadilar.

**Sherzod:** — Endigi musiqiy tabrik navbati sinfdoshlarimizdan Muhammadali, Temurbek va Sardorlarga. Ular «karate» to'garaklarida tayyorlab kelgan chiqishni namoyish etishmoqchi.

**Dilafro'z:** — Qani bo'lmasa, ularni choraymiz.

*Mashq harakatlariga mos musiqa sadolari ostida davrada uchta o'g'il bola navbat bilan karate mashqlarini bajaradilar.*

**Fotima:**

— Kuz fasilda tug'ilibsiz,  
Kuzdek oltin bo'lingiz.  
O'n yoshingiz muborak,  
Yana yuzga to'lingiz.

**Zuhra:**

— Yana bordir sovg'amiz,  
Uni kuylab beramiz!

*O'quvchilar ijrosida «Tilaklar» qo'shig'i ijro etiladi.*

**Sherzod:** — Endi muhtaram ustozimizga so'z beramiz.

**Dilafro'z:** — Ular bugun tug'ilgan kunini nishonlayotgan bayram qahramonlarini qutlab, ularga atalgan sovg'alarni topshirmoqchilar.

*Qarsaklar, musiqa sadolari ostida davraga ustoz chiqib keladi.*

**Ustoz:** — Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar, ustozlar, ota-onalar hamda mehmonlar! Men bundan uch yil avval qabul qilgan 1-sinf o'quvchilarim bilan har yili bir faslda tug'ilgan o'quvchilarning tug'ilgan kunlarini birgalikda nishonlaymiz. Bundan maqsadim — o'quvchilarim bir-birlari bilan mehr-oqibatli bo'lishsin, keyinchalik ham yuqori sinflarda, hatto, mактабни tugallab, turli o'quv maskanlariga tarqalib ketganlarida ham yig'ilib, mana shunday davralarda bir-birlarining tavallud kunlarini nishonlab turishni odat qilishsin.

Oltin kuz fasilda tug'ilgan o'quvchilarim! Sizning 10 yoshingiz muborak bo'lsin. Kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishingizdan qat'iy nazar, eng asosiysi — chin inson bo'ling, ona Vatanimizning kelgisida bundan ham gullab-yashnashi uchun faol kurashuvchi o'g'il-qizlar bo'lib yetishing. Shu faslga munosib hamma tomonlama — o'qishda, odobu axloqda «tillo» bolalar bo'ling.

*Qarsaklar chalinadi.*

*Ikki kichik yordamchi o'g'il-qizlar sovg'alarini navbat bilan ustozga olib kelib turadilar. Ustoz esa navbat bilan tug'ilgan kun egalarini ism-sharifini o'qib, davraga chorlaydi. Quvnoq musiqa, qarsak-olqishlar ostida davraga chaqirilgan qahramonlar chiqishadi.*

**Ustoz:** — Dalila, tug'ilgan kuning bilan tabriklayman!

**Dalila:** — Rahmat!

**Ustoz:** — Bugungi bayram haqida yoki sinfdosh do'stlaringga aytadigan gaplaring bordir.

**Dalila:** — Mana, bizning o'n yoshlik shodiyonamizda ota-onalarimiz, ustozlarimiz, yaqin do'starimiz ham

xursandchiligidizga sherik bo'lishyapti. Olgan sovg'alarimiz bugungi bayramdan esdalik bo'lib qoladi. Men bu kunni hech qachon esimdan chiqarmayman. Sizlarga katta rahmat.

**Ustoz:** — Mana bu sovg'alar senga, — deb chiroqli o'ralgan stol lampasi, kitoblar, guldaстani topshiradi. Kitoblarni berib:

— Mana shu kitoblarni o'qib, yanada aqlii, bilimli bo'lgin.

*Stol lampasini berib:*

- Mana shu chiroqni yoqib, dars tayyorlaganingda doimo bugungi o'gitlarimni eslagin. Hayot yo'ling doimo yorug' bo'lsin.

*Gul berib:*

- Eng asosiyi doimo bugungidek mana shu gullardek go'zal bo'lib yurgin!

*Musiqa sadolari, olqishlar ostida navbatdagi o'quvchilar ham o'zlariga atalgan sovg'alarini olib, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar. Ustoz berayotgan sovg'aga qarab, o'quvchiga sovg'anining hayotdag'i o'rnini haqida gapiradi.*

*(Sovg'alarini ota-onalar o'z farzandlari uchun o'zlarini olib kelib, avvaldan ustozga topshirib qo'yishlari mumkin).*

**Sherzod:** - Bugun esa aynan 31 oktabr kuni sinfdoshlarimiz Madinaboning tug'ilgan kuni.

*Uni davraga chorlab, tabriklagach, davra o'tasida turgan maxsus kursiga o'tqazib, sind o'quvchilari musiqa sadolari ostida 10 marta yuqoriga ko'tarib, tushiradilar. Keyin esa hamma stol atrofiga yig'ilib, tortdag'i 10 ta sham tilaklar bildirilib, puflanadi.*

*Shundan so'ng, tabrik so'zlarini maktab rahbariga, ustozlarga, ota-onalarga, mehmonlarga yoki xohlovchilarga berish mumkin.*

**Dilafro'z:** - Aziz mehmonlar! Shuning bilan bugungi «Sen tug'ilgan kun» deb nomlangan kechamiz o'z niyoyasiga yetdi!

**Sherzod va Dilafro'z:** - Xayr, sog' bo'ling!

*Hammaning olqishlaridan so'ng bayramga kelgan bolalar ijrosida «Bayram» qo'shig'i ijro etiladi. Musiqa va qo'shiq hamma mehmonlar zaldan chiqib ketgunlariga qadar yangrab turadi.*

*(Kechani o'tkazishda «Bulbulcha», «Tomosha», «Sevinch», «Tantana» qo'shiqlaridan foydalaniлади.)*



M.Nurinboyev fotosi.

# MUSIQA FANI VA O'QUVCHI SHAXSI

O'quvchilarning ma'nnaviy-badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirishda, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda, ijodiy mahorat, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashda musiqa fani predmetining xizmati katta. U adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat fanlari bilan bir qatorda o'quvchining nafosat va badiiy didini o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga hissa qo'shamdi. Shu bois ham Umummiliy dastur talablari bo'yicha qayta ko'rib chiqilgan yangi tahrirdagi Davlat ta'lif standartlarida musiqa o'quv predmetiga ham katta ahamiyat berilgan.

Ma'lumki, insонning qay darajada tarbiya ko'rganligi uning shaxsiy sifatlarida ifodalanadi. Shaxsiy sifatdagi har qanday xususiyat uning kamol topishi bilan shakllanib boradi.

Masalaga shu nuqtai nazardan e'tibor beradigan bo'lsak, musiqa ta'llimi jarayonida o'quvchi shaxsiga individual yondashish ta'limning demokratlashuvida alohida ahamiyat kasb etishi ko'zga tashlanadi. Boz ustiga, musiqa ta'limga qo'yilgan zamonaviy talab — o'quvchi umumiyo'rta ta'lif musiqa madaniyati faniga qo'yilgan Davlat ta'lif standartlari mazmuni va shu yo'nalishdagi me'yorlangan bilimlarni o'zlashtirishdan iborat. Jumladan, ular musiqaning faol tinglovchisi, ma'lum darajada musiqa nazariyasining bilimdoni, vokal-xor malakalarini egallagan, cholg'u asboblari ovoziga jo'r bo'la oladigan, musiqiy-ritmik harakatlarni erkin va nafis bajara oladigan darajada bo'lishi kerak. O'quvchi shaxsi shular ta'sirida shakllanib, rivojlanib boradi. Ayniqsa, musiqa ta'lifi mazmuni o'quvchida shaxsiy jihatlarining uzuksiz shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Zero, musiqa fanini o'qitishning har qanday jarayonida o'quvchi shaxsiga individual yondashishi va uning o'ziga xosligini e'tirof etishga xos bo'lgan aloqadorliklar o'zaro aloqadorlikda bo'lgan yondashuvlar hisoblanadi. O'qituvchi aynan shularni inobatga olib, musiqiy materiallarni bayon etishda bir-biriga bo'lgan tamoyillarga tayanishi lozim. Ayniqsa, darsda o'rganiladigan o'quv materiallari yuzasidan sodir bo'ladigan didaktik hodisalar har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olinishi orqali qo'llanilishi muhim ekanligiga alohida e'tibor qaratishi kerak bo'ladi.

O'quvchining musiqa sohasida real bilish imkoniyatlarini uning aynan shu sohadagi individual xususiyatlaridan kelib chiqib, tavsiflash natijasida dars davomida amalga oshiriladigan har bir musiqiy faoliyat jarayonida o'quvchiga individual yondashishni qaror toptiradi. O'quvchiga shaxs sifatida yondoshishda uning musiqa sohasida tajribasi, o'quv materialini o'zlashtirishga va musiqiy ehtiyojini qondirishga bo'lgan xatti-harakatlarga xos shaxsiy sifatlari haqida aniq tasavvur hosil bo'ladi.

Maktabda musiqa madaniyatiga oid amalga oshirilib kelinayotgan ta'lifni individuallashtirishning xususiyatlari tomoni shundaki, u har bir o'quvchining o'z individual xususiyatlariga moslab tashkil etishni taqozo etadi. Individullashtirish yo'lli bilan bolada qo'shiqlarni uyatchanlik yoki qo'rquv bilan kuylash holati, mantiqan fikrlashdagi tortinchoqlik, musiqiy tahlilni atroflicha bayon etolmaslik, ritmik harakatlarni ifodali yoki ravon bajara olmaslik holatlari bartaraf etiladi. Shuningdek, o'qiutchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, bir-birini tushunib o'quv materialiga ijodiy yondashish, murakkabliklarni oson

yengish vaziyatlari ancha yaxshilanadi.

O'quvchi shaxsiga individual yondashish faqat dars davomidagi musiqa tinglash, turli qo'shiqlarni kuylash, ularni tahlil qilish orqali musiqa savodini egallash yoki cholg'u asboblari ijrosiga jo'rnavoz bo'lish, turli musiqa asarlarini ritmik tuzilmasiga monand harakatlarni bajarishdagina emas, balki o'quv-biluv jarayonining barcha bosqichlarida, chunonchi, har qanday yangi musiqiy materiallarni bilan bog'liq bo'lgan topshiriq, vazifa, vositalar yoki o'quv materialini mustahkamlash uchun mo'ljallangan turli mashqlar, darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlar, konkurslarga o'z ijrosi bilan faol ishtirok etish jarayonlarida ham amalga oshirilishi zarur. Masalan, o'quvchilarga yangi qo'shiqnini kuylashga o'rgatish yoki biror-bir musiqa asarini tinglatib, idrok ettirish, tahlil qilish, musiqa savodi berib borishda individuallikni ta'minlash qanday amalga oshiriladi? O'qituvchi o'quv materialini, ya'ni 3-sinf o'quvchilar ijrosi uchun mo'ljallangan «Diyor madhi» (N.Rahmat sh. N.Noxo'jayev m.) qo'shig'ini kuylashga kirishishda faqat kuylashga taa'iluqli elementlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. U dastavval qo'shiqnini o'quvchilarga bir necha marotaba tinglatib, uni musiqa, badiiy tahlilini qilib berishi va shoir hamda kompozitorning asosiy maqsadi nimaga qaratilganligi haqida ma'lumot berishi, qo'shiq so'zlarining musiqiy ohang bilan o'zaro uyg'unlashib badiiy ijrosini vujudga keltiradigan talaffuzlarni to'g'ri hosil qilish usularini bayon etishi kerak. Albatta, o'quvchilar ovozini kerakli tovush balandliklarida sozlab, ular o'rtasidagi hamjihatlik, ovozlaridagi uyg'unlashuv vaziyatlarini vujudga keltirishi shart.

Shundan so'ng qo'shiq jumllarga bo'lib-bo'lib o'rgatiladi. O'qituvchi har bir jumlni dastlab o'zi kuylaydi va takrorlab o'quvchilarni ham kuylashga da'vat etadi. U qo'shiq ijrosi bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni ijrochilik mahorati ancha kuchli, ovozi jarangdor, nafis, yoqimli kuylash malakasiga ega bo'lgan o'quvchilarni nazarda tutib bayon qilishi lozim. Bunday holatda ovoz diapozoni yaxshi rivojlanmagan, kuylash imkonni past yoki kuylashda qiynalib tez-tez xatolarga yo'l qo`yadigan o'quvchilar nima qilishi kerak? O'qituvchi har bir yangi qo'shiqni bolalarga o'rgatishdan oldin ana shunday o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazib, qo'shiqni idrok ettirishi va kuylash sir-asrорларини синф жамоаси ижроси имконига яқинлаштириб о'йиши керак. Акс holda, ijrochining dastlabki ko'rinishlaridanoq, ko'pgina qiyin vaziyatlar yuzaga kelib, umumiij ijroning sifat darajasini pasaytirib yuboradi. Natijada ijroviy nomutanosiblik hosil bo'lib, o'quvchida qo'shiqni ijro etishga bo'lgan ishtiyoy susayib qoladi. Boshqa fanlar o'qitilishida ana shunday ishlar doimiy ravishda bo'lmasa-da, lekin musiqa fanidan dars beruvchi o'qituvchining faoliyatida u juda zarur hisoblanadi. Chunki musiqaga ijodiy yondashmasdan turib uni nafis va

go'zal ijro etib bo'lmaydi. Musiqa asari tovushlar vositasida ifodalangan real voqelarni o'zida mujassamlashtirib, yaxlit holda musiqiy-badiiy obrazini ro'yobga chiqaradi. Musiqiy-badiiy obrazni ro'yobga chiqarish har bir o'quvchining ijroviy mahorat, malaka va savodxonlik darajasiga bog'liq. Agar o'quvchida ana shunday ko'rsatkichlar ijobiyl bo'lsa, asar ijrosi ham go'zal bo'ladi. Demak, musiqiy ta'limni individuallashtirish uchun uni har bir o'quvchining musiqiy savodxonligi, ijroviy mahorati va saviyasiga xos individual xususiyatlar inobatga olinishi va bu jarayon ko'p jihatdan shunga moslab tashkil etilishi kerak.

Musiqiy ta'limni individuallashtirish muammosi musiqa fanini o'qitishning nazariyasi va amaliyotida yangi muammo bo'lmasa-da zamonaviy musiqiy ta'lim-tarbiya nazariyasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko'pchilik o'qituvchilar sinf o'quvchilarining musiqiy iste'dodi va qobiliyatları bir xilda emasligi, ularning individual rivojlanganlik darajasi xilma-xil ekanligiga e'tibor bermay, darslarni tashkil etadi. Bunday holat aynan musiqiy ta'limni tabaqalashtirish muammosi bilan bog'liq masalalar, ilmiy-pedagogik asosda hal qilinishi va musiqa fanini

yangi pedagogik texnologiyalar orqali ma'lum darajada individuallashtirib o'qitilishini taqozo etadi.

Agar e'tibor bersak, o'quvchilarning musiqiy taasurotlari, tasavvuri o'zgaruvchan bo'lib, ular ko'p holatlarda tovushlar vositasida ifodalangan musiqiy voqelik, badiiy obrazlarni ichki his-tuyg'u bilan tushunib asoslashga qiynaladi. Bu shundan dalolatki, har qanday musiqiy voqelik, badiiy obraz o'quvchining ichki dunyosi, hayotiga individual yondashuv asosida kiritilishi kerak. Bunda o'quvchining musiqiy-individual xususiyatlari, qiziqishi hisobga olinishi shart, albatta.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning musiqiy-o'quv faoliyatida nafaqat ichki va ruhiy holatlar, balki unga ko'rsatiladigan ko'pgina tashqi ta'sirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bular — musiqa faniga bo'lgan shaxsiy qiziqish, o'quvchida mavjud bo'lgan musiqiy-nazariy bilim, ko'nikma, ijroviy malaka va mahorat, idrok etish qobiliyati, musiqiy topshiriq, vazifalarni bajara bilishga xos qobiliyat va mas'uliyat darajasining mavjudligi va boshqalardir.

**D.RO'ZIYEV,**  
**Buxoro Davlat universiteti**  
**«Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va uslubiyoti» kafedrasi mudiri.**

# UNDOSH TOVUSHLAR VA HARFLAR

## (2-sinflar uchun)

**Darsning mavzusi:** Undosh tovushlar va undosh harflar (takrorlash, umumlashtirish darslari)

### Darsning maqsadi:

a) o'quvchilarning tovush va harflarning belgilari, tovushlarning turlari, undosh tovushlar va harflar haqidagi bilimlarini eslatish va kengaytirish;

b) o'quvchilarga iqtisodiy bilim berish;

v) «Taklifnoma» yozish malakalarini shakllantirish, matn yaratishga o'rgatish.

**Darsning turi:** mustahkamlash darsi.

**Darsning metodi:** Suhbat, aqliy hujum muammoli izlanish.

**Darsning jahozi:** Taklifnomalardan namunalar, taklifnoma yozilgan plakat, turli hajmdagi kartochkalar.

### Darsning borishi:

#### 1. Uyga berilgan vazifani so'rash.

— 54-mashqning sharti bo'yicha nima ishlar qildingiz?

— Nuqtalar or'niga harfni qo'yib, maqollarni husnixat bilan yozdik.

— 1-maqolni o'qing, so'zlarning yozilishini tushuntiring.

— Dehqon bo'sang, kuz hayda, Kuz haydamasang, yuz hayda.

«Dehqon» «hayda» so'zlarida «h» harfi tushirib qoldirilgan ekan, ular yumshoq aytilyapti, ham bo'g'izimizda aytilyapti, shuning uchun «h» harfini qo'yib yozdim.

— 2-maqolni o'qib, so'zlarning yozilishini tushuntiring.

— «Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan» maqolidagi «hurmat» so'ziga tushirib qoldirilgan «h» harfi qo'yiladi.

#### 2. — «x» va «h» tovushlarining aytishidagi farjni tushuntiring.

— 1-qator «h» tovushni ifodalovchi

harfli so'zlardan 4 ta, 2-qator «x» harfli so'zlarga 4 ta so'z topib yozadi. 3-qator har ikki xiliga 4 ta so'z topib yozadi.

O'quvchilar daftarga yozganlarini o'qib beradilar.

**3. Saylanma diktant.** «X» va «H» harfli so'zlar aralash aytildi, o'quvchilar «x» harfli so'zlarnigina eshitib, ajratib olib yozadilar.

Xat, sahifa, harf, paxta, taxta, hid, behi, xo'roz.

Saylanma diktant o'qitish orqali tekshiriladi.

#### 4. Undosh tovush va harflar yuzasidan savol-javoblar.

— Undosh tovushlar qanday aytildi?

— Undosh tovushlarni aytинг.

— O'zbek tilida nechta undosh tovush bor?

— Undoshlar nechta turga bo'linadi?

— Jarangli undoshlarni aytинг.

— Jarangsiz undoshlarni aytинг.

— Qaysi undoshning yozilishida xato qilishingiz mumkin?

**5. O'tilganlar yuzasidan o'quvchilar javobini umumlashtirib, yakunlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib baholash.**

#### 6. «Taklifnoma» yozishga o'quvchilarni tayyorlash.

Buning uchun quyidagicha suhbat o'tkaziladi:

— Odamlar qanday kunlariga bir-birlarini taklif qiladi?

— Tug'ilgan kunlariga, to'ylarga, bayramlarga taklif qiladi.

— Qay tarzda taklif qiladilar?

— Uyiga borib aytib keladi.

Telefon orqali aytadi. «Taklifnoma» qog'ozlarini berib aytadi.

— Siz taklifnomalarni o'qib ko'rganmisiz? Ular qanday yozildi?

O'quvchilarga tayyor taklifnomalar tarqatiladi.

Ular taklifnomaning matnnini o'qib chiqadilar.

Masalan:

#### «Taklifnoma»

Hurmatli, dugonam Saida! Sizni 2006 yil 3 fevralda nishonlanadigan tug'ilgan kunimga taklif etaman.

Dugonangiz: Sojida

#### Taklifnoma

Hurmatli \_\_\_\_\_

Sizni aziz farzandlarimiz Botirjonning muchal to'yi munosabati bilan 2006 yil 25 aprelda nahorda beriladigan oshga taklif etamiz.

Hurmat bilan Abduqodir Bekmurodovlar oilasi.

Manzil: «Tabassum» restorani.

O'quvchilar taklifnomalarni o'qib, o'rganganlardan so'ng, o'zlarida ham taklifnoma yozish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Ularga «Tug'ilgan kuningiz qachon? Unga kimlarni taklif qilmoqchisiz? Taklifnoma yozish niyatingiz bormi?» kabi savollar beriladi.

#### 7. O'quvchilarni taklifnoma yozishga o'rgatish.

Doskaga taklifnoma yozish namunasi ko'rsatilgan plakat ilinadi. O'quvchilar diqqati savollar yordamida plakatga qaratiladi5

— «Taklifnoma» so'zi qog'ozning qayeriga yozildi?

— O'rta qismiga yozildi.

— Qanday harf bilan yozildi?

— Bosh harf bilan yozildi.

— Taklifnoma qanday yozuvda yozilishi kerak?

— Husnixat bilan yozish kerak. Bo'lmasa, bizning dastxatimizdan o'qigan kishi kuladi, ham o'qiy olmaydi.

— Hozir men sizga qog'oz kartochkalar tarqataman.

1-chiziq ustiga bosh harf bilan chiroyli

qilib «Taklifnoma» deb yozasiz. Undan keyin nuqta qo'yiladimi? (doskadagi yozuv ko'rsatiladi) O'quvchilar «yo'q» deb javob berishadi.

So'ng keyingi qismi tushuntiriladi:

— *Hurmatli so'zi* qayerdan yozilgan? Qanday harf bilan yozilgan?  
— *Hurmatli so'zi* xat boshidan, bosh harf bilan yozilgan.

— Keyin uzun chiziq turibdi. U yeriga kimni taklif etayotgan bo'lsangiz, o'shaning nomini bosh harf bilan yozasiz.

2-qatorga shularni sig'dirib, chiroli xat bilan yozing.

— Endi nima munosabat bilan taklif qilayotganingizni yozasiz.

Doskaga yozib ko'rsatiladi:

Sizni 2006 yil 14 fevralda nishonlanadigan tug'ilgan kunimga taklif etaman.

— Oxirgi qatorga nima deb yozasiz? Doskadagi yozuv ko'rsatilib, o'quvchilarning o'zlariga o'qitiladi.

— Tagiga o'zimming ismimni yozaman. (Dugonang Hilola yoki Do'sting Shuhuratjon)

8.Yozilgan «Taklifnoma»ni o'qitish. Xatolarini tekshirish.

O'qituvchi har bir o'quvchiga «Taklifnoma» yozishda chiroli va savodli yozishga e'tiborni qaratish lozim.

Bulardan tashqari «Taklifnoma»lardagi ismni o'zgartirib, uni boshqa tanishlaringizga, qarindoshlaringizga yozishingiz

mumkin.

Endi «Taklifnoma»ning matnini qog'ozdagidek qilib, daftaringizga yozib qo'ying.

Keyingi darslarda turli otkritkalarning orqasiga «Tabriknoma» yozib o'rganamiz. U bilan «Taklifnoma» yozgan o'rtog'ingizni tabriklaysiz, deb aytildi.

#### 9.Darsimiz sizga yoqdimi?

Bugun nimalarni o'rganib oldingiz? savollari bilan dars yakunlanadi.

X.G'ULOMOVA,  
Nizomiy nomidagi TDPU  
dotsenti.  
X.BOQIYEVA.

2007 yil — Ijtimoiy himoya yili

## O'ZIMIZGA XOS ODAT

Yordamga muhtoj insonlarga madad qo'lini cho'zish, yiqilganga yelka tutish o'zbegimga xos odat. Xalqimizning bu bebafo xislatlarni hamisha yuksak baholab, qadrlab kelayotgan Yurtboshimiz ham ijtimoiy muhofazaga birinchi galda muhtoj bo'lgan aholi toifalariga ko'mak berishni dolzarb vazifa qilib qo'yan. Ular — ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, yetim-yesirlar va nogironlar, talaba va pensionerlardir.

Bu ulug' Inson tomonidan 2007 yilga «Ijtimoiy himoya yili» deb nom berilishi jamiyatimizda o'zaro qadr-qimmat, mehr-oqibat tuyg'ularini, eng katta boyligimiz bo'l mish tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashga, hayotimizni yanada obod va farovon qilishga xizmat qiladi.

Buning yaqqol isbotini biz, o'zimizning «Muruvvat uyi»mizga ko'rsatilayotgan saxovatpeshalik yordamlaridan ham sezsa bo'ladi. Ushbu maskanda aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan 120 nafar bola tarbiyalanadi. Ularning sog'lom

bolalar qatori o'sib-ulg'ayishlari uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. O'quv va o'yin, musiqa, logoped xonalari, sport zali, videosalon, kutubxona, medpunktlar ular uchun beminnat xizmat ko'rsatadi. Ikki nafar ruhshunos va logopedlar bolalar salomatligini bot-bot nazorat qilib turishadi. O'g'il-qizlar turli uy-ro'zg'or buyumlari yasash, bichish-tikish, kashtachilik, munchoq qadash singari hunarlar bilan shug'ullanadilar. «Mening mustaqil Respublikam», «Vatan — yagona». «Qomusimiz — baxtimiz», «Xayit — bizning bayram» singari shiorlar ostida o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etadilar.

Muruvvat uyimizda 37 nafar fidoyi pedagog faoliyat ko'rsatadi. Ularning fidoyi deganimning boisi bor. Axir 120 nafar bolaning har birining o'z fe'l-atvori, o'zini tutishi, xohish-istagini bilgan holda ularga ta'lim-tarbiya berish, o'ksitmay, ko'ngliga yo'l topish o'qituvchidan ozmuncha mehnat talab qilmaydi-da.

Shu o'rinda bizga har taraflama madad bo'lib, saxovatpeshalik

ko'rsatayotgan homiylarimiz ko'magini ham ta'kidlab o'tmoqchiman. Ular muassasamiz va farzandlarimiz uchun zarur bo'lgan barcha mebel jihozlari, kiyim-kechak, o'quv anjomlarini olib berayaptilar. Ayniqsa, Samarqand avtomobil zavodida tayyorlangan «Isuzu» avtobusining hadya etilishi barchamizni quvontirib yubordi. Homiylarning beminnat madadlari tufayli farzandlarimiz hech kimdan kam bo'limgan holda ta'lim-tarbiya olayaptilar. Zero, Prezidentimiz ham: «Dunyoga umid bilan qadam qo'yib kelayotgan navnihol inson hayotdan munosib o'rnini topsa, turmushidan, taqdiridan, vatanidan rozi bo'lib yashaydi, umr bo'yi bunyodkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi», deganlar.

Biz ham hamisha bu bebafo so'zlarning amalda bajarilishi uchun hamisha harakat qilamiz.

Liliya TUGUSHEVA,  
Toshkent shahridagi 30-«Muruvvat  
uyi» direktori o'rinosbosari.

# MEHRJO

(3-4-sinf)

*Maktab sahnasi rang-barang gullar, bir-biridan chiroylis so'zana va kashtalar bilan bezatilgan. Sahn to`rida «Mehrjon sayliga xush kelibsiz!» shiori osilgan. Zal mehmonlar bilan gavjum. Hammaning chehrasida tabassum. Mayin musiqa yangraydi va sahnaga o`qituvchi hamda boshlovchi chiqishadi.*

**O'qituvchi:** - Assalomu-alaykum, aziz o`quvchilar, hurmatli o`qituvchilar hamda ota-onalar! Biz sizlar bilan bu yerda xalqimizning kuzgi bayrami - «Mehrjon sayli»ni nishonlash uchun to`planganmiz. Barchangizni mana shu qutlug` kun bilan qizg'in tabriklayman. Davramizga xush kelibsiz, aziz mehmonlar!

Navro`z bilan Mehrjon o`zbeklarning eng go`zal, eng tarovatlari, eng sevimli bayramlaridir. Navro`z ilk bahorda nishonlanadi va bunda bobodehqon dalada urug` sochib, mo`l-ko`l g`alla olishni rizq-ro`zimiz bo`lmish nonni serob bo`lishini niyat qiladi. Bayram ishtiokchilari yangi kun, yangi yil shodiyonasini o`z



harakatlarida jozibali ifoda etsa, Mehrjonda esa serhosil bog'u dalalarda yig'ilgan kuz ne'matlari qishga tayyorgarlik ko`rishni tarannum etadi. Xalqimiz kuzgi bayram saylining «Mehrjon» deb atagani bejiz emas. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy: «Quyosh bilan Oy-falakning ikki ko`zi» deya aytib o`tg'anlar. Biz Navro`z bilan Mehrjonni zaminimizning ikki ko`zi desak aslo yanglishmaymiz.

Aziz mehmonlar, ushbu ayyom bilan sizlarni yana bir bora qutlab, davrani ochiq deb e'lон qilaman.

*Musiqa yangraydi. Qo'llariga kuzgi hosil namunalari solingan savat ko'targan bolalar davraga kirib keladilar. Qarsaklar yangraydi. Kuy kuyga ulanadi. Boshiga oltinmisol sap-sariq yaproqlardan sochpopuk taqib olgan, kuz fasliga monand libos kiygan qiz bola kuz timsolida kirib keladi va musiqa ohangiga raqsga tushadi.*

**Boshlovchi:**

- Ko`zing chaqnoq, yuzing quvnoq, Xush kelbsan, ey go`zal Kuz!

**Kuz:**

- Oltin yaproq, uchar har yoq, Men bilan-chi, yorug'dir yuz. Bugun bayram, tezroq yeloy, Dehqon bobom chorlab kelay.

*Sahnaga chehrasida tabassum, belbog`ini boshiga salsa qilib bog`lab olgan, do`ppisi o`ziga yarashgan, belida qo'sh belbog`, qo'lida ketmon ushlagan dehqonbobo kirib keladi.*

**Dehqonbobo:** (o`zicha) - Mana, kuz ham keldi. Endi yil bo`yi yetishtirgan barcha hosillarimni nest-nobud qilmay tezda yig'ib-terib olishim kerak. Bu yilgi hosil har yilidan ham mo`l bo`ldi. Nasib qilsa o`zbeginning dasturxonni

to`kin, bahorgacha ro`zgori obod bo`lishiga ishonaman. Yaratganga ming bora shukrkim, hosilimdan yuzim yorug'.

*Shu payt Dehqonbobo huzurida Kuz paydo bo`ladi.*

**Kuz:**

- Tong shamoli olib keldi meni butomon,

Elchidirman tinglang so`zim, ey dehqonbobo.

Kutmoqdadir bolajonlar, kutar «Mehrjon»,

Qutlab sizni deyishmoqda «Keling, marhabo!»

**Dehqonbobo:**

- Ha, aytgancha, bugun sana yigirma beshdir, Niyatlarim Mehrjonning saylin ko`rishdir.

Borishim shart, bolajonlar meni kutmoqda,

Ular shodon, menga atab she'rlar bitmoqda.

Kuz bilan Dehqonbobo davraga kirib kelishadi.

*Qo'llarida hosil ko'targan o`quvchilar ularga egilib ta'zim qiladilar.*

*Musiqa chalinadi. «Andijon polkasi»ga hamma raqsga tushadi.*

**Boshlovchi:**

- Xush kelibsiz, Dehqonbobo, sizga assalom, Hormang endi, sizga bo`lsin eng shirin kalom.

**Hamma:**

- Assalomu-alaykum, Dehqonbobo!

**Dehqonbobo:**

- Salom aziz bolajonlar, rahmat

# ON SAYLI

*r uchun)*

sizga,  
Davra to`rin ajratibsiz bugun bizga.  
Sizga barcha hosillarim tortiq  
bo`lsin,  
Hurmatlabsiz, martabangiz ulug'  
bo`lsin.

**Boshlovchi:**

- Qo`li qadoq Dehqonbobo, sizga

nima bilmadingiz chekib

hayot seroblikni

a olqish bo`lsin, bo`lsin

qarsaklar bilan uni  
i).

**nma:**

Dehqonbobo sizga  
nat!

Sahnaga bolalar kirib  
radi. Ular turli-tuman  
sil namunalari timsolida

**jonbobo:** (Hosillarga

quvnaydi bir qarang,  
arim rang-barang.

**deydi:**  
larim, tilga kiring har

o`ting bolalarga o`z

rma-bir so`zlaydilar.

lerlar meni,

iftixori.

an tog` qilay,  
obod qilay.

sin har bir xona,

qop-qop bug'doy, don bilan.  
To`ldiray dasturxonni,  
Tandir-tandir non bilan.

Paxta bilan yonma-yon,  
Doim birga yuramiz.  
O'zbekiston gerbida,  
G`oz kerilib turamiz.

**Kungaboqar:**

- Qarshi olib quyoshti,  
Botguncha kuzataman,  
Bahra olib nuridan,  
Ufqqa uzataman.

**No`xat:**

- Meni deydilar No`xat,  
Loviyaning do`stiman.  
Dukaklilar safida  
Men bekamu ko`tsiman.

**Tariq:**

- Mening nomimchi Tariq,  
O`zim mitti, sap-sariq.  
Bedanaga ozuqa,  
Bolalarga shirin bo`tqa.

**Loviya:**

- Oppoq yuzda qora xol,  
Yarashadi o`zimga.  
«Maqtayapti o`zin» - deb,  
Hayron bo`lmang so`zimga  
Ovqat men bilan shirin,  
Bilmaysiz buning sirin.  
(«Ana gullola» qo`shig'i ijro etiladi).

**Dehqonbobo:**

- Gal kepti mevalarga,  
Quloq soling ularga.

**Olma:**

- O`zim xushta'm mevaman,  
Tanga quvvat beraman.

**Anor:**

- Ismim anor, alvon rang,  
Po`stim ochib bir qarang.  
Donalarim yoqtudek,  
Tatib ko`rib, siz yayrang.

**Behi:**

- Behiman menga boqing,  
Meni kech kuzda qoqing.

**Uzum:**

- Tariflayman o`zimni,  
Aytib o`tay so`zimni.  
Keksayu yosh barchasi,

Sevar har xil uzumni.  
Mayiz bo`lay, quriting,  
Men bilan mehmon kuting.

**Shaftoli:**

- Men shaftoli, shaftoli,  
Ta'mim judayam totli.  
Xomligimda tukliman,  
Pishganda suyukliman.

**Anjir:**

- Men jannatning mevasi,  
Tabiat mo`jizasi.  
Gullamasligim biling,  
Yeb ko`rib, mazza qiling.

**Nok:**

- Shaklim o`xshar kadiga,  
Shiraga xo`p to`lamani.  
Xom paytim uzib olmang.  
Yemay armonda qolmang.

**O'rik:**

- Meni sevganlar asli,  
Kutsin ayni yoz fasli.  
Turshak qilib olsangiz,  
Yeysiz to`yib qish fasli.

**Jiyya:**

- Gulim hidi anqisa,  
Darhol uzib olishar.  
Mevam pishsa hovuchlab,  
Cho`ntaklarga solishar.

*(Davomi 25-betda).*



T.Salohov kompozitsiyasi.

# Я И ЗАКОН

*(Разработка открытого урока для учащихся 4-х класса, посвященного  
Дню Конституции Узбекистана)*

**Учитель.** Сегодня мы поговорим об Основном Законе Республики Узбекистан – Конституции, в которой закреплены основные права и обязанности граждан нашей страны.

Независимость наша! Свобода – навеки!  
Нам карнаи, гремя, торжество возвестили.  
Наши души откроем и руки сплетем,  
Независимость, мы твой дворец возведем!  
Духу, мысли воскреснуть пора,  
Книга мудрости, веры – вновь с нами Коран.  
Караванов пути, что в веках знамениты,  
Наши братья, соседи, вам сно ва открыты.  
Пусть торговля кипит, знаний клад умножай,  
Мастерство наше, щедрость пусть мир поражает!  
Мы на праздник собрались, сплоченные тесно.  
Пусть же в лад воедино звучит наша песня!

**Ученица.**  
Наш независимый Узбекистан, Светом свободы твой день осеян, Знамя свободы своей поднимай! Имя твое несравненно и свято! Не за тебя ли сражались когда-то Храбрый Ширак и царица Тумарис!

К свету наук твои дети стремились, Славны в веках Беруни, Ибн Сино. Кругом поэтов ты прославлен давно, Зодчих творенья и ныне дивят... Мухитдин Джаббар

**Учитель.** Ребята, я продиктую слова, некоторые из них взяты из этих двух прочитанных стихотворений, вы запишите только первую

букву каждого слова (устный ребус) и получите слово, которое указывает тему нашего урока:

Карнай  
Обрести  
Независимость  
Свобода  
Торжество  
История  
Труд  
Узбекистан  
Цветущий  
Ибн Сино  
Язык

По вертикали у нас сложилось слово «Конституция». И мы сегодня с вами будем говорить о Конституции – об Основном Законе нашей страны.

Открывается книга «Конституция». На первой странице написана тема: «Я и Закон».

**Учитель.** Я пригласила Конституцию, которая посидит на нашем уроке и в конце даст оценку нашей с вами работе.

**Входит «Конституция» - девочка с короной на голове.**

**Конституция.**

Луч свободы взошел  
Над Отчизной древнейшей!  
Каждый день, каждый час,  
каждый миг  
Подтверждает нам это -  
Торжествует Закон!  
Охраняет всей силой своей  
Наш народ от недоброго дела  
И злого навета -  
Торжествует Закон!  
Ничего нет превыше его.  
Конституции день  
Отмечает республика наша.  
На своем мы пути!  
И, конечно, добьемся всего.  
Станет край наш свободней,  
Богаче, сильнее и краше.

**Ученник.** «Наша цель – чтобы Узбекистан, народ которого столетиями мечтал о свободе, обрел под-

линную Независимость, процветал и благоденствовал, занял достойное место в международном сообществе, в ряду развитых демократических государств. Правовой гарантой этому будет служить первая Конституция независимого Узбекистана».

И.А.Каримов.

**Ученица.** «Наша Конституция на деле служит общечеловеческим идеям и ценностям – утверждению мира, свободы, братства и дружбы народов и наций».

И.А.Каримов.

**Учитель.** Конституция. Что означает это слово?

**Ученники.** 1. «Конституция» – слово латинского происхождения, означает «устройство». Конституция – основной закон государства, определяющий общественное и государственное устройство.

2. Конституция – основа всего законодательства государства.

3. В Конституции описаны основные права, свободы и обязанности человека и гражданина, административно-территориальное и государственное устройство, порядок и принципы организации государственной власти.

4. В Конституции закреплены личные права и свободы человека, его политические, экономические и социальные права, а также гарантии соблюдения этих прав гражданина.

5. В Конституции описывается избирательная и судебная система.

**Учитель** открывает макет книги «Конституция Республики Узбекистан».

**Ученник.** Закон Республики Узбекистан

«Об утверждении Конституции Республики Узбекистан.

Верховный Совет Республики Узбекистан принял решение: утвердить Конституцию Республики Узбекистан.

Конституция Республики Узбекистан вступает в силу с 8 декабря 1992 года.

Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов.

г.Ташкент. !992 год 8 декабря».

**Ученица.** На второй странице мы читаем о праздновании Дня Конституции Республики Узбекистан.

«Верховный Совет Республики Узбекистан принял решение:

8 декабря – День Конституции - считать праздником для всех граждан Республики Узбекистан».

**Ученик.** В своде законов нашей страны – Закон «О Государственном гербе Республики Узбекистан». В центре герба изображена птица Хумо с раскрытыми крыльями, которая является символом счастья и свободолюбия. В верхней части герба находится восьмигранник, символизирующий знак утверждения республики, внутри него - полумесяц со звездой. Изображение солнца - пожелание того, чтобы путь нашего государства всегда был озарен ярким светом. Одновременно солнце указывает на уникальные природно-климатические условия республики. Колосья - символ хлеба насыщенного и стебли с раскрывающимися коробочками хлопка, главного богатства нашей солнечной земли, перевиты лентой государственного флага.

**Ученик.** Закон Республики Узбекистан «О Государственном флаге» был принят 18 ноября 1991 года. Государственный флаг представляет собой прямоугольное полотнище из трех горизонтальных полос голубого, белого и зеленого цветов во всю длину флага. Длина флага – 250 см., ширина – 150 см. Голубая, белая и зеленая полосы равны по ширине и составляют 40 см. По краям белой полосы – красная каемка – 2,5 см. каждая. В верхней части у древка – белый полумесяц и рядом 12 белых пятиконечных звезд. Небесно-голубой

цвет – символ голубого неба и чистой воды. Белый цвет – символ мира и чистоты, как бы добroe пожелание, чтобы путь был чист и светел. Красные полосы – это жизненные силы, пульсирующие в каждом живом существе, символ самой жизни. Зеленый цвет – олицетворение природы. Полумесяц и звезды – символы безоблачного неба и мира, число 12 - количество областей республики, включая автономную Республику Каракалпакстан.

**Ученица.**

Флаг, переполненный огнем,  
Цветущий, как заря,  
И тонким золотом на нем  
Три доблести горят:  
То – цвета флага,  
То – полумесяц,  
То звезды на нем горят.  
И краше в мире флага нет...

**Ученик.** В Конституции записано право каждого на получение образования. Образованию в нашей республике уделяется огромное внимание. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» - тому свидетельство. Подрастающее поколение страны получает среднее образование в общеобразовательных школах, лицеях, гимназиях. После окончания школы, лицея юноши и девушки могут продолжить образование в высших учебных заведениях.

**Ученик.** В Конституции записано: Ташкент – столица Республики Узбекистан.

Здесь песня о счастье  
Навек прописалась...  
Весь город живет,  
Как большая семья,  
Ташкент – это солнце!  
Ташкент – это радость!  
Ташкент – это дружба моя и твоя!

**Конституция.** У вас, ребята, есть и обязанности по отношению к Родине, к родителям, к пожилым людям, к природе и окружающей среде. Вот об этом и поговорим сейчас.

**Ученик.** Любовь к Родине надо воспитывать с детства, начиная с любви к родному краю, родной природе. Человек, который понимает

и бережно относится к природе, не сделает дурного поступка. Есть закон, который охраняет природу, ее богатства. Согласно этому закону, расхитители природных богатств наказываются. Пусть каждому из нас станет дорога и близка живая природа.

**Ученица.** На всех языках есть такие слова:

Мать. Родина. Счастье.

Река. Синева.

Слова – путеводные наши огни  
Живые. Земные.

И суть их проста.

Хлеб. Утро. Работа.

Мечта. Красота.

Но есть такие слова в словарях,

Что вызывает тревогу и страх.

Слова, что исчезнуть должны навсегда:

Война. Разоренье.

Жестокость. Вражда.

Останутся с нами другие слова,  
В них гордая сила людского родаства:

Мир. Дружба и радость высокой волной.

Мы – люди. Мы – дети планеты одной.

Звучит запись песни «С чего начинается Родина».

**Ученица.** Любовь к Родине начинается с любви к своей семье, к своему дому, к своей школе, перерастает в чувство любви к своему городу, селу, к родной природе, любви к своей стране и ее народу.

**Учитель.** Дорогие ребята! Чтобы делать людям хорошее, приносить пользу своему народу, своей стране, надо хорошо знать историю своей страны, изучить основной закон своей страны - Конституцию, закон о правах и обязанностях граждан, овладеть прочными знаниями, чтобы в будущем стать настоящими гражданами родного Отечества.

**Е. СПИРИНА,**  
учитель высшей категории  
школы № 307  
г.Ташкента

# ИГРА НА УРОКАХ – КРЕПКИЕ ЗНАНИЯ

Республиканский центр образования изучил опыт учителя начальных классов школы № 10 г.Зарафшана Л.Г.Ибрагимовой. Лидия Газизовна творчески подходит к разработке каждого своего урока, используемые ею приемы и методы положительно сказываются на качестве знаний и навыков учащихся. Лидия Газизовна стремится к тому, чтобы занятия были живыми, интересными, чтобы ученики ощутили радость творчества. Особенно они активны на ее увлекательнейших уроках-путешествиях, уроках-экскурсиях, уроках-соревнованиях. Интересно проходят групповые игры: КВН, «Звездный час», «Поле чудес», разнообразные викторины. Находчивость, сообразительность, умение самостоятельно рассуждать развиваются систематическими занятиями и упражнениями, решением задач и головоломок, отгадыванием загадок, ребусов, кроссвордов.

За годы работы Лидия Газизовна накопила богатый дидактический материал, который помогает ей разнообразить уроки, вызывает интерес к изучаемым темам. Особое внимание она уделяет применению дидактических игр, так как считает, что игра необходима для воспитания и развития ребенка на начальном этапе.

Предлагаем вниманию читателей несколько методических разработок Л. Ибрагимовой.

\*\*\*

## ТЕСТЫ ПО МАТЕМАТИКЕ ДЛЯ 1-го КЛАССА

**Тема:** Цифры и числа.

Как правильно?

1. Цифры служат для:
- а) записи чисел;
  - б) счета предметов;
  - в) записи звуков.

2. Числа служат для:
- а) записи чисел;
  - б) записи звуков;
  - в) счета предметов.
3. Числа, записанные одной цифрой, называют:
- а) маленькими;
  - б) однозначными;
  - в) двузначными.
4. Укажи самое большое однозначное число:
- а) 10; б) 0; в) 9.
5. Укажи самое маленькое однозначное число:
- а) 0; б) 1; в) 9.
6. 10 — это число:
- а) однозначное;
  - б) двузначное;
  - в) большое.

## ТЕСТЫ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ 2-го КЛАССА

**Тема:** Имя существительное

1. Найди одушевленные существительные:
- 1. Пенал. 2. Ручка. 3. Школа.
  - 4. Ученник. 5. Дети.
2. Найди неодушевленные существительные:
- 1. Сад. 2. Заяц. 3. Дерево. 4. Лес.
  - 5. Медведь.
  - 3. Найди существительные женского рода:
- 1. Бабочка. 2. Гриб. 3. Поляна.
  - 4. Внучка. 5. Поле.
  - 4. Найди существительные мужского рода:
- 1. Доска. 2. Стол. 3. Мел. 4. Альбом. 5. Карандаш.
  - 5. Найди существительные среднего рода:
- 1. Окно. 2. Дождик. 3. Небо. 4. Солнышко. 5. Травка.

## ТЕСТЫ ПО МАТЕМАТИКЕ ДЛЯ 4-х КЛАССОВ

1. Часы показывают полдень.

За какое время пройдет четвертую часть круга часовая стрелка?

- а) 3ч., б) 2ч., в) 4 ч., г) 1 ч.;
- А минутная стрелка?

- а) 20 мин., б) 15 мин., в) 25 мин., г) 10 мин.

2. В спортивном кружке девочек было в 2 раза меньше, чем мальчиков. Когда в кружок приняли еще 5 девочек, то их стало столько же, сколько мальчиков. Сколько стало девочек?

- а) 15, б) 12, в) 10, г) 20.
- 3. В классе 40 учеников. Сегодня отсутствуют 2 человека. Какая часть учащихся отсутствует?

- а) десятая, б) двадцатая, в) сороковая, г) тридцатая.

4. Самое большое шестизначное число, все цифры которого различны?

- а) 987654, б) 978645,
- в) 967854, г) 986754.

5. При каком значении «а» частное 500:а принимает наибольшее значение?

- а) а = 1, б) а = 2, в) а = 3, г) а = 4.

6. Покупатель купил 15 голубых конвертов и 10 конвертов с марками. На 5 голубых конвертах были марки. Сколько конвертов купил покупатель?

- а) 25, б) 15, в) 20, г) 10.

7. В корзине яблок меньше 10. Эти яблоки можно поровну разделить между двумя или тремя девочками. Сколько яблок в корзине?

- а) 6 яблок, б) 9 яблок, в) 12 яблок, г) 14 яблок.

8. Ракета, скорость которой 8 км/с, летит быстрее самолета в 32 раза. Чему равна скорость самолета?

- а) 150 м/с, б) 250 м/с, в) 350 м/с, г) 200 м/с.

## ФЛАГ РОДИНЫ

(Разработка урока, посвященного истории флага страны)



Давайте обратимся сначала к недавнему прошлому нашей страны. 31 августа 1991

года на внеочередной сессии Верховного Совета было провозглашено о Республике Узбекистан как о суверенном государстве. А 1 сентября объявлено Днем независимости страны, нерабочим днем. С провозглашением независимости началась работа по созданию государственной символики: флага, герба и гимна. И вот 18 ноября 1991 года был принят Закон о государственном флаге.

Поговорим сегодня о государственном флаге, его истории, ведь она — отражение истории страны.

По утверждению историков, в V веке н.э. в период государства эфталипов (420-562 г.г.), в которое входили такие княжества и владения, как Согд, Бухара, Хорезм, Фергана, Чач, Тохаристан, в качестве государственного флага использовался белый флаг с изображением пятиконечной звезды светло-желтого цвета.

Много правителей больших и малых ханств сменилось прежде, чем они были объединены в единое сильное государство под предводительством сахибирана Амира Темура в XIY столетии, когда оно пережило эпоху настоящего ренессанса и явило миру блестательные памятники архитектуры Самарканда и Бухары. В литературе — произведения, вышедшие из-под пера Джами, Навои, Бабура, Фирдавси, в науке — звездную карту Улугбека, открытия Беруни, Канон медицины Абу Али ибн Сино. В дальнейшем на уроках истории мы познакомимся глубже с перечислен-

ными именами и их деяниями.

В период правления Амира Темура в качестве государственного флага был утвержден флаг темноголубого цвета, в центре которого изображались три соединенных между собой кольца серого цвета, символизировавшие три континента - Азию, Европу, Африку, куда простирались владения Тимуридов.

Флаг государства другой династии правителей — Бобуридов — имел форму вытянутого, расширяющегося в длину треугольника желто-красного цвета.

Флагом Хивинского ханства, образованного в первой половине XYI века, было полотнище коричневого цвета, обрамленное зеленой полоской, с полумесяцем и пятиконечной звездой в центре.

Флаг Бухарского ханства (первая половина XYIII в.) представлял собой полотнище зеленого цвета с изображением полумесяца и пятиконечной звезды.

Флаг Кокандского ханства (образовано в 11 году XYIII в.) был желтовато-рыжего цвета и тоже — с полумесяцем и пятиконечной звездой.

Как выглядит наш флаг — Республики Узбекистан? В Законе «О государственном флаге Республики Узбекистан» подробно дано описание флага, определены рамки его применения, даны основные требования так называемого флагового этикета, который носит общепринятый характер. Флаг представляет собой прямоугольное полотнище с соотношением сторон 1:2 и состоящее из трех горизонтальных равновеликих полосок голубого, белого и зеленого цветов. Белая полоса сверху и снизу окантована красными линиями. На голубой полосе у основания изображены полумесяц и 12 пятиконечных звезд

белого цвета.

При вывешивании государственного флага существуют правила, требующие неукоснительного соблюдения. Так например, государственный флаг поднимается на специальном флагштоке перед зданием или на здании;

- если флаг висит круглосуточно, то с наступлением сумерек и в ночное время обеспечивается его искусственное освещение. В случае отсутствия освещения государственный флаг поднимается с восходом и опускается с заходом солнца.

Если несколько государственных флагов поднимаются одновременно, то каждый из них вывешивается на отдельном флагштоке в алфавитном порядке (либо по алфавиту языка страны, либо по латинскому алфавиту).

Если государственный флаг поднимается в честь главы иностранного государства, то почетное место справа отдается флагу иностранного гостя.

Флаг поднимается быстро, опускается медленно; в момент поднятия флага или, когда его проносят мимо, военнослужащие отдают честь, а гражданские лица снимают головные уборы. При вносе его в зал все присутствующие встают, прекращая всякие движения и разговоры.

Оказание почестей государственному флагу является общепринятой международной нормой. Так будем уважать флаг своего Отечества, равно как и других стран.

**В.БЕЛОВА,**  
учительница начальных  
классов средней школы № 110  
г. Ташкента

# TO'G'RI VA RAVON O'QISHGA ERISHISH

(Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq malakalarini hosil qilish)

*Avvalo har insonning,  
Dilda iymoni bo'lsin!  
Fikrin bayo etgali,  
Tili-zaboni bo'lsin!*

Nutq ikki ko'rinishga ega - og'zaki va yozma nutq. Bular o'zaro uziy় bog'langan bo'lsa ham, har birining o'ziga xos xususiyati bor. Og'zaki nutqda tovushlar, so'zlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish a'zolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda, avvalo ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf qilish yo'llarini izlab topishimiz kerak.

Chiroli so'zlashni, savodli, to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki etolmagan o'quvchi bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo'lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Nutq orqali odamzod o'zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda - to'la rivojlangan yoki shakllangan bo'lavermaydi.

Ba'zi bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o'zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug'diradi. Bunday hollarda logoped mashg'ulotlar yordamiga muhtoj bo'ladi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o'qituvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzilish sabablarini o'rganish lozim. Buning uchun har bir

bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilinayotgani belgilab boriladi. Nutq o'stirish - ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishini o'stirishni, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi.

Og'zaki nutqqa o'rgatishning ilk davrida daktiologiya (qo'l alifbosi)dan foydalanhiladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o'zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf, ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroli yozish ko'nikmalarini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda ko'proq amaliy maqsadlarni ko'zlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og'zaki nutqini muntazam o'stirib borish bog'lanishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi.

Ma'lumki, bu vazifalarni amalga oshirish yo'llari xilma-xildir.

Savod o'rgatish darslarida amaliy mashg'ulotlarga keng o'rinni berish va malakalarni singdirishda qiziqarli va jonli narsalardan, texnika vositalaridan, turli o'yin va o'yin turidagi mashqlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Darslikka doir hikoyatlar, ertaklar, she'r va maqollardagi notanish so'zlar o'qib yoki eshittirib tushuntiriladi.

Masalan, «Kim sezgir», «Bu nima?», «Nomini ayt?» o'yinlari.

Mashqning bu turlari o'quvchilarga yangi harf o'rgatilgandan keyin uni qay darajada o'zlashtirilganliklarini sinash va mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

O'qituvchi doskaga o'rnatilgan harflarni ma'lum bir tartibda teradi va uni o'qigach, o'quvchilarga ham navbat bilan o'qitadi. So'ngra bolalarga sezdirmay ayrim harflar o'rni almashtirib qo'yiladi. Bunda o'quvchilarning sezgirligi, topqirligi baholanib, rag'batlanriladi.

Mehnat ta'limi darslarida ham o'quvchilarning nutqini o'stirishga katta e'tibor berilib, o'rgatuvchi xarakterdagi o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Masalan: «Mehmon kutamiz», «Sabzavotlar va mevalar do'konii», «Shar shaklidan kim ko'p narsa yasaydi?»

O'yinlar orqali milliy qadriyatlarimizdan, o'zbekona merosimizdan foydalanib, qadr-qimmat, mehr-oqibat, odob-axloq, ota-onha va kattalarni hurmat qilish kabi xislatlarni bola qalbiga singdirish mumkin.

Masalan: «Odobli bola» o'yinida sinf uch guruhga bo'linib, har guruhdan bir o'quvchi ishtirot etadi.

O'qituvchi: — Xo'sh bolalar, odobli bola ertalab, o'rnidan turib nima qiladi?

O'quvchi: — Odobli bola erta barvaqt turib, o'rnini yig'ishtiradi, yuvinadi, badan tarbiya qiladi, ota-onasiga va oila a'zolariga salom beradi.

O'qituvchi: — Odobli bola qanday salom beradi?

O'quvchi: — «Assalomu alaykum», deb salom beradi, keyin nonushta qiladi.

O'qituvchi: — Odobli bola dasturxon atrofida qanday o'tiradi?

O'quvchi: — Odobli bola

kattalardan pastda o'tiradi, «Bismillohir rahmonir rahim», deb dasturxonga kattalardan keyin qo'l uzatadi, og'zida ovqat bilan gapirmaydi.

Shu kabi savol-javoblardan keyin guruqlar javobi izohlanib, to'plagan ballar e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

Bu xildagi dars - o'yin turidagi mashg'uotlar bolalarni mehnatsevarlikka tayyorlaydi, ularning mustaqil, ijodiy faoliyatini, lug'at

boyligini oshirib, nutqini rivojlantirishga yordam beradi va darslarning uzviy bog'liqligini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, har bir darsda, u qaysi predmet bo'lischenidan qat'iy nazar, birinchi galadagi vazifamiz o'quvchilarning ongli, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishiga erishishimiz, nutqini o'stirishga harakat qilmog'imiz lozim.

Bu tadbirlar o'quvchilarning yil

davomida olgan bilimlarini namoyish qilishga, tahlil etishga va mustahkamlashga, og'zaki nutqini o'stirishga, eslash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

**Zuhra RO'ZMETOVA,**  
**Urganch, VXTB**  
**Ta'lif Markazi**  
**bosh metodisti,**  
**xalq ta'limi a'lochisi.**

## Ustoz otangdek ulug'

# EZGULIK DILLARGA QUVVATDIR

Inson o'zini qachon baxtli his etadi? Hech shu haqda chuqurroq mulohaza yuritganmisiz? Mabodo muallima Shahnoza O'roqboyevaga shu savolni bersangiz, u hech ikkilanmasdan shunday javob aytadi:

- Mening fikrimcha, inson o'z oldiga qo'yan maqsadiga to'liq erishsa, shundagina o'zini baxtli his qila oladi. Men ana shunday insonlardan biriman, desam aslo yanglishmayman. Chunki yoshligimdan o'quvvatdirishga bo'lib orzuim edi. Bugun shu kasb egasi ekanligimdan qalbim quvonchdan entikadi, - deydi ko'zları porlab.

Shahnoza oddiy dehqon oilasida voyaga yetdi. Ota-onasi rahmatli Qilich aka va Sofiya opalar besh qizning ichida unga mehrlari boshqacha edi. Chunki Shahnozada kichikligidan o'qishga ishtiyoq kuchli, maktabda ham tengdoshlari orasida o'z iqtidori bilan alohida ko'zga tashlanib turardi. U birinchi o'quvvatdirishga kabibi bolalarga saboq berishni, maktabdeq qutlug' dargohda faoliyat ko'rsatishni orzu qilardi. Yillar o'tib, o'z orzusiga erishdi. Sevimli ustozlaridek fidoyi, el ardoqlagan kasb egasi bo'lib yetishdi.

Mana, uning ustozlik kasbini e'zozlab kelayotganiga ham 20 yildan oshibdi. Tirishqoqligi tufayli maktabning tajribali o'quvvatdirishidan biriga aylandi. Uning yuzlab sobiq o'quvchilari allaqachon hayotda o'z ornilarini topishgan.

Bir voqeа aslo yodimdan chiqmaydi. O'tgan yili u faoliyat ko'rsatayotgan Bulung'ur tumanidagi 4-umumta'lif maktabiga xizmat yuzasidan tashrif buyurgandim. Bu yerda to'planishgan besh-o'n chog'li ayollarning suhbatni diqqatimni beixtiyor o'ziga tortdi.

- Men qizimni Shahnoza opa rahbar bo'lgan sinfga beraman, - dedi ulardan biri.

- Men ham, - dedi o'rta bo'yli qorachadan kelgan ayol uning fikrini qo'llab. - Chunki Shahnoza opa tajribali hamda fidoyi o'quvvatdirishga.

Bugun muallimaning ish faoliyati haqida yozar ekanman, maktabdeq o'sha suhbatni esladim. O'quvvatdirishga urchun bundan-da ortiq mukofot bormikan? Yo'q, albatta. Shahnoza esa allaqachon el nazariga tushgan boshlang'ich sinf muallimasi. Uning

ish tajribasi o'tgan yili viloyat va tuman miqyosida ommalashtirildi, xalq ta'lifi boshqarmasi nashri bo'lmish «Ta'lif fidoyisi» jurnalida keng yoritildi. O'quvvatdirishga mashg'uotlarini kuzatgan maktab rahbarlari hamisha undan mammun bo'lischadi. Tajribali pedagog ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarini qiziqarli va mazmunli o'tishga har doim harakat qiladi va bunga erishadi ham. Undan tashqari muallima boshlang'ich sinflar bo'yicha ilmiy bo'lim mudiri sifatida doimo faol. U yosh o'quvvatdirishga har bir darsini diqqat bilan kuzatadi. Yutuqlaridan quvonadi, kamchiliklari bo'lsa, ustoz sifatida yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Dars o'tishning turli uslublarini ularga qunt bilan o'rgatib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, hamkasblari va shogirdlarining erishgan har bir muvaffaqiyati ustozga qanot bag'ishlaydi.

**Mamadali JALILOV,**  
**O'zbekiston jurnalistlar**  
**uyushmasi a'zosi,**  
**Samarqand viloyati.**

# TOJIK SINFLARIDA O'ZBEK TILI

Ma'lumki, o'qishlar tojik tilida olib boriladigan umumta'lif maktablarining 2-4-sinflarida o'zbek tili lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda o'qitilmoxda. Yangi avlod darsliklari esa O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi tavsiya qilgan «Ta'lif tojik tilida olib boriladigan umumiyl o'rta ta'lif maktablarining 2-9-sinflari uchun o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha dastur»i asosida yaratilgan.

Mualif Bozorboy O'rinovning tojik maktablarining 2-3-sinflari uchun yozilgan darsliklari bizning uzoq Surxondaryo viloyati tog'li Boysun tumanidagi maktablarda ham amalda qo'llanib kelinayotir. Mualif tomonidan darsliklarning nechog'li puxta ishlanganligi ta'lif-tarbiya jarayonida ayniqsa, qo'l kelmoqda.

Endilikda barcha o'qituvchilar mazkur fanning o'qitilish metodikasi haqida boy taassurotga ega bo'lishdi. O'zbek tili fanining metodikasi tojik maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan 2-3 tilni mukammal bilishini talab qiladi. O'qituvchi dars jarayonida ikki tilning qiyosiy grammatikasidan qanchalik unumli foydalansa, imlo qoidalariagi farqlarni ilmiy asosda tushuntirib borsa, so'z va gaplarning tarjimasiga alohida e'tibor qaratса, shubhasiz har bir darsning samaradorligi oshib boradi. Lekin, kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'pchiligi yangi fan metodikasi haqida yetarlicha keng qamrovli tushunchaga ega emas. Achinarisi — ayrim o'qituvchilar ko'p hollarda vaqtini asosiy o'zbek tili darsliklarda berilgan lug'atlarni yodlashga sarflashmoqda. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, tojik va rus tilini mutlaqo bilmaydigan ayrim o'qituvchilarimizning ta'lif boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili fanidan dars berish hollari

ham ba'zan uchramoqda. Bu esa shubhasiz, darsning sifatiga ham ta'sir etmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz o'quvchilarni o'zbek tilida erkin so'zlashishga o'rgatish, darslarimizda o'zbekcha jonli nutqni egallashlariga ko'maklashish, yozma nutqini shakllantirishga undashdir. Ma'lumki, o'zaro so'zlashuv chog'ida tojik tilidagi so'zlarni qo'shib gapirish, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda juda kuchlidir. O'quvchi «qishloq», «mahalla», «daha» so'zlarining lug'aviy ma'nosini yaxshi tushunadi, bu so'zlar bilan bir qatorda: «Dahamiz bolalari futbol o'yinini yaxshi ko'radi», degan gap ham tuza oladi. Yoki «Manmanlik qilma» iborasi, har ikkala tilda ham keng qo'llaniladi. O'quvchi so'zlashuv jarayonida sheva ta'sirida: «Man uchinchi sinfda o'qiyman», deb aytadi va shunday yozadi. Biz, o'qituvchilar ularga so'z va qo'shimchalarining aytilishi va yozilishini ilmiy asosda tushuntirsak, o'quvchi keyinchalik yozuvda ham xato qilmaydi. To'rtinchisinf o'quvchisining yozma ishdan bir misol keltiraylik:

«Bizning zamondoshimiz Alisher Navoi 1441 yilda Hirot shahrida tug'ildi». O'quvchining har ikkala tilda ham bir xil lug'aviy ma'no anglatuvchi «zamondosh» so'ziga, Navoiy so'zini tojikcha shaklidek Navoi deb yozishi bizdan ham lug'at, ham imlo qoidalari ustida atroficha ishlashimizni talab qilmoqda. Dars jarayonida bizning yo'l-yo'riqlarimiz o'quvchini charchatmasligi, psixologiyasiga noto'g'ri ta'sir qilmasligi kerak. Aks holda ularning fanga bo'lgan qiziqishi so'nib boradi. O'quvchilar nutqini kuzatib borish va uni tuzatishga yordam berish vaqtinchalik emas, balki o'zbek tili o'qituvchilarining kundalik faoliyatiga aylanishi, doimiy bo'lib qolishi zarur. Ayniqsa, tarjima qilinishi kerak bo'lgan maqol, iboralar va frazeologik birikmalarga asosiy e'tiborimizni

qaratishimiz zarur. Masalan: «Bekordan hamma bezor». - «Az bekor hama bezor». «Aqlsiz bosh oyoqning sho'ri», - «Kallai bemag'z - jabri poy», «Six ham kuymasin, kabob ham», «Na six so'zad, na kabob» kabi tarjima qilsak, har ikkala tilning ichki imkoniyatlaridan to'g'ri foydalangan bo'lamiz. Lekin, «Bir qush bilan bahor kelmaydi», «Qo'ychivon ko'p bo'lsa, qo'y harom o'ladi», degan maqollarini yuqorida keltirilgan misollarimizdek so'zma-so'z tarjima qilsak, maqolning tojik tilidagi shakli buzilib, bu hol tilning zarur imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanganimizni ro'y-rost ko'rsatadi.

Agar, «Bo yak gul bahor nomeshavad». «Kayvoni no'h shud, zavola gum shud», kabi muqobil maqollar bilan tarjima qilsak, har ikkala tildagi jozibadorlikni to'liq saqlab qolgan bo'lamiz.

7-8 yoshga to'lgan bolalar matabda birdaniga ikki-uch tilni o'rganha boshlaydilar. Tabiiyki, yozuvga lotin va kirll harflarini o'zları bilmagan holda qo'shib yozish boshlanadi.

Bu borada boshlang'ichlar uchun o'zbek tili sinfonalarini zamonaviy jihozlash alohida ahamiyatga egadir. O'qituvchi faqat lotin yozuvdag'i stendlar, ko'rgazmali qurollar asosida dars o'tsa, o'quvchilar hech qachon chalg'imaydilar. Hamma narsa aralash-quralash bo'lsa, yozuvda ham shunday holat yuzaga keladi.

Ta'lif boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda sinf doskasi ham katta ahamiyatga ega. Birdaniga ikki o'quvchining doskada mashq bajarishi uchun imkoniyat yaratsak, darsning samaradorligi yanada ortadi. Har darsda kamida 5-6 so'zning yozilishini berib borsak, o'quvchilarining imloviy savodxonligi ham o'sib boraveradi.

Masalan: «amakivachcha-amakbachcha», «tarjima-tarjuma»,

«oliy-oly», «Ayniy-Ayny», «tilshunoslik-zabonshinosy» kabi. Xullas, tojik tilida ta'lif olayotgan o'quvchilarni o'zbek tilida to'g'ri so'zlashishga, yozishga o'rgatish uchun o'qituvchi o'z faniga ijodiy yonldoshishi, har bir dars

jarayonida yo'l qo'yilgan xatolardan kelib chiqib, o'qitishning turli ilg'or usullaridan keng foydalanishi zarur. Bu borada matbuot sahifalarida ilmiy-metodik maqolalar ko'proq berib borilsa, bizning bir imkoniyatimiz ming

imkoniyat bo'lar edi.

**Samad SAFAROV,**  
**Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi 3-maktabning olyi toifali o'qituvchisi.**

### (Davomi. Boshi 16-betda.)

#### **Yong'oq:**

- Po'stimni zo'r lab ochmang,  
Sabr qiling kuzgacha.

Sentabrni kutsangiz,

To'lishaman o'zgacha.

#### **Olcha:**

- Meni deyishar olcha,  
Mevamni sevar barcha.  
Murabboyu sharbatim,  
Darmondir bahorgacha.  
Dehqonbobo Xatni ko'rsatib deydi:  
- Gilos o'zi haqida,

Oq qog'ozni to'ldirgan.

«Mehrjonga o'qing» deb,  
Uni menda qoldirgan.

(Xatni ochib o'qidi.)

«Ertapishar mevaman,

Men bahorni sevaman.

May, iyun oylarida,

O'z mevamni beraman.

Men, Gilosni unutmang,

Bayramda meni kutmang.

Menden hammaga salom,

Shu bilan gapim tamom».

(«Beshqarsak» raqsi ijro etiladi.)

#### **Dehqonbobo:** (Sabzavotlar

timsolida bolalarga qarata deydi)

- Sabzavotlar yaqin keling,  
O'zingizni tanishtiring.

#### **Kartoshka:**

- Kartoshkaman bilsangiz,  
Mazaliman esangiz.

Kuzda kovlab olasiz,

Ko'p ovqatga solasiz.

#### **Karam:**

- Qiyma o'rab bag'rimga,  
Do'ima qilib yeyishar.

Totli sho'rvam ichganda

«Bay-bay» ham deb qo'yishar.

#### **Piyoz:**

- Piyozdirman qatma-qat,  
Unutmang do'stim hech vaqt.

Lazzatl bo'lomaydi,

Men solinmagan ovqat.

#### **Turp:**

- Meni turp deyishadi,

Qirg'ichda qirishadi.

Palovni suzishganda,  
Osh bilan yeyishadi.

#### **Sabzi:**

- Sabziman qizil-sariq,  
Palov mensiz pishmaydi.

#### **Sholg'om:**

- Shifobaxsh ne'matman,  
Shamollashga men davo,  
Ko'z quvvat oshirgum,  
Sho'rvamdan iching - shifo.

#### **Lavlagi:**

- Yeb ko'rsangiz, «qand» deysiz,  
Go'yoki asal yeysiz.

Tanaga quvvat bergum,  
Ham darmon, ham qon bo'lgum.

(«Oq terakmi, ko'k terak» qo'shig'i

ijro etiladi)

#### **Dehqonbobo:**

- Polizdag'i ekinlar,  
Qani, yaqin kelinglar.

Hamma gapirib o'tdi,

Sizlarga navbat yetdi.

#### **Tarvuz:**

- Shirin etim qip-qizil,  
Yeganlar qilar rohat.

Kasallarga davoman,

Xosiyatim ko'p behad.

#### **Qovun:**

- Men tarvuzning qo'shnisi,  
Qovunto'ra bo'laman.

Yeb ko'rsangiz, siz albat,

Deysiz: «Ekkanga rahmat!».

#### **Bodring:**

- Ovqat bilan qo'shib yeng,  
Ishtahangiz ochaman.

#### **Pomidor:**

- Men Pomidor bo'laman,  
Vitaminga to'laman.

Yozda meni so'ragan,

Topishadi daladan.

Qishda meni so'ragan,

Topar issiqxonadan.

**Dehqonbobo:** (Qo'lidagi xatni ko'rsatib)

- Shu o'rinda yana bir,  
Menga qoldirilgan xat.

O'qib o'tmoqni unga

Va'da qilganman albat.

#### *(Xatni ochib o'qidi)*

«Meni yashirar palak,

Nomim jajji Handalak.

Hidim anqib chiqsa bas,

Topmagan hech tinchimas.

Mehrjonne ko'rmayman,

Bunga afsus qilmayman.

Chunki yozda pishaman,

El og'ziga tushaman.

Xushchaqchaq o'tsin sayl,

Deb qolaman, xo'p, xayr!»

*Mayin musiqa chalinadi, qizaloqlar  
raqs ijro etishadi.*

#### **Kuz:**

- Kuchli shamol esmoqda,

Ko'kda bulut kezmoqda.

Qushlar sayrar betinim,

Kutib turolmaymiz jim.

Dam g'animat, bobojon,

Shoshilmoq kerak har on.

#### **Dehqonbobo:**

- Bolajonlar, bizga ruxsat

Bering, endi boraylik.

Hosilni nobud qilmay.

Tezda yig'ib olaylik.

#### **Hamma:**

- Rahmat sizga, Dehqonbobo!

Hosilingiz mo'lbo'lsin

Qut-baraka yog'ilib,

Omborlar donga to'lsin.

#### **Boshlovchi:**

- Dehqonbobo sizga bo'lsin,

Quvvat doim madadkor.

Bilagingiz kuchga to'lsin,

Bizlar sizdan minnatdor.

Dehqonbobo xayrlashib chiqib ketadi. O'quvchilar kuzatib qoladilar. Musiqa sadolari ostida hosil ko'targan bolalar ham barcha bilan xayrlashadi. Sahnaviy ko'rinish tugab, badiiy qism boshlanadi va kuy qo'shiqqa ulanadi.

**Tojixol O'RINOVA,**  
**Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 17-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi,**  
**Akram SUYUNOV,**  
**118-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.**

# BAYON USTIDA ISHLASH

## (1-sinflar uchun)

To'la savodxonlikning omillaridan biri o'quvchilar nutq madaniyati ustida ishlash, ularni og'zaki va yozma nutqlaridagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va tuzatishdan iboratdir. Shuning uchun 1-sinfданоq bir turdagи yozma ishlar bilan chegaralanib qolmay, balki yozma ishning barcha turlari ustida mashg'ulot olib borish o'quvchilarda fikrni keng ko'lамда va xilma-xil ravishda bayon eta bilish qobiliyatini o'stirishga katta yordam beradi.

Yozma ish turlaridan biri bayondir.

Bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir.

Birinci sinf dasturiga ko'ra matnni qayta hikoyalash mashqlari berilmaydi. Faqat aniq bir mavzuda rasmlarga qarab gap va kichik hikoya tuzish (inshoga tayyorgarlik mashqlari) ko'zda tutiladi.

Tayyorgarlik mashqlarini o'tkazish o'quvchilarda sodda gap tuzish ko'nikmasini hosil qiladi. O'quvchilar gapda so'zlarning tartibini, gap oxirida nuqta qo'yishni, bir gapni ikkinchi gapdan ajratishni o'rganadilar.

Tayyorgarlik mashqlari uchun tanlanadigan matnda gapdagi so'zlar soni ko'pi bilan 4-5 ta bo'lishi mumkin. Bunday matnlarni bolalar uchun yozilgan asarlardan (kitoblardan) tanlash qiyin. Shuning uchun tayyorgarlik mashqlariga mos matnni o'qituvchining o'zi tuzishi yoki «Alifbe» kitobida berilgan matnlardan tanlashi mumkin. Tayyorgarlik mashqlarining ko'piga «Alifbe» kitobida matnlar berilgan.

O'quvchilarga yordam tariqasida quyidagi matnlarni tavsiya etishni lozim topdik.

Tayyorgarlik mashqlarining dastlabki bosqichida matn yoki

hikoyani hosil qiladigan gaplar (aralash) tartibi buzilgan holda sinf yozuv taxtasiga yoki karton qoq'ozga yoziladi. Bu birmuncha qulaylik tug'diradi. Sinf yozuv taxtasida ishlash o'quvchilarning qo'lyozma matnlarini o'qish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, hikoya mazmunini tushunishni osonlashtiradi.

O'quvchilar aralash berilgan gaplardan hikoya tuzishda bog'lanishli nutqning muhim talabini — mazmundagi ketma-ketlikni og'zaki o'zlashtiradilar. Masalan, «Bahorda» matnidagi gaplar tartibi buzilgan holda sinf xattaxtasiga yoziladi.

Qushlar uchib keldi. Taxtachaga don sefdi. Olim qushlarni sevadi. U daraxtga taxta o'rnatdi. Olim boqqa bordi.

### Darsning borishi:

I. O'qituvchi o'quvchilarga in, don, qush haqidagi tushunchalarni qisqacha eslatadi. Don, in, qushlar ifodalangan rasmlarni ko'rsatadi.

II. O'qituvchi sinf yozuv taxtasidagi matnni o'qyidi va tahlil qiladi.

Hikoyada kim haqida gap boradi? (Olim haqida gap boradi).

Qushlar nima qildi? Javobini matndan topib o'qing. (Qushlar uchib keldi).

### III. Hikoya tuzish uchun tayyorgarlik.

O'qituvchi o'quvchilarga aralash berilgan gaplardan hikoya tuzishni aytib, yozuv taxtadagi matnda nechta gap borligini aniqlashni uqtiradi va hikoyani o'qyidi. So'ngra quyidagi savollarga javob oladi. Hikoyada nechta gap bor? Hikoyada to'rtta gap borligini qanday bildingiz? Gaplarning o'rnni almashtirish mumkin ekanmi? Nega o'rnni almashtirish mumkin emas?

Xulosa: hikoyaning o'ziga xos tartibi bor. Uni buzib bo'lmaydi.

Tartib buzilsa, hikoyaning mazmuni chiqmaydi.

### IV Hikoyacha tuzish

O'quvchilar yozuv taxtadagi gaplarni o'qiydilar. Ularning joylashishida tartib yo'qligini aytadilar. Shundan keyin o'qituvchi quyidagi savollarga javob oladi: — Hikoya hosil bo'lishi uchun nima qilish kerak? (Hikoya hosil bo'lishi uchun gaplarni o'rniqa qo'yib o'qish kerak.) — Hikoyani qaysi gapdan boshlash lozim? (Olim boqqa bordi.) — Undan keyin-chi? (Taxtachaga don sefdi.) — Hikoya qaysi gap bilan tugadi? (Qushlar uchib keldi.)

Agar o'quvchilar savollarga javob tanlashda qiyalsalar, o'qituvchi yordam beradi. O'quvchilar tanlagan gaplarni o'qiydilar. (ichda va xor bilan)

O'qituvchi har bir savolga berilgan javobni yozuv taxtaga yozib borsa, juda yaxshi bo'ladi. Chunki o'quvchilar bog'langan matn tuzishni (gaplarni ketma-ket joylashtirishni) o'z ko'zlar bilan ko'rdilar.

### V Ishni xulosalash

O'qituvchi o'quvchilardan: «Biz aralash berilgan gaplardan nima tuzdik? (Biz aralash berilgan gaplardan hikoya tuzdik.) Biz buni qanday bajardik? (Gaplarning mazmuniga qarab tartib bilan joylashtirdik.) Bu hikoyaga qanday sarlavha qo'yish mumkin? «Bahorda» sarlavha qo'yilishi to'g'rimi? deb so'raydi.

O'quvchilar mashqning maqsadini og'zaki tushunib oladilar. Hikoyalashda mazmunning bog'lanishiga, ketma-ket kelishiga ahamiyat berishni o'rganadilar.

### Matnlar

1.Ta'limi mashqlar uchun matnlar (Tayyorgarlik mashqlari)

### Tulki

Tulki o'rmonga bordi. Go'sht hidini

sezdi. Hid kelgan tomonga yugurdi. Tulki qopqonga ilindi. (14 so'z)

Hikoyadagi gaplar tartibi buzilgan holda yozuv taxtaga yoziladi. O'qituvchi hikoyani o'qib, uni berkitib qo'yadi.

#### Namuna:

Tulki qopqonga ilindi. Tulki o'rmonga bordi. Hid kelgan tomonga yugurdi. Go'sht hidini sezdi.

**Tahlil.** Tulki nimaga ilindi? Tulkining qopqonga tushishi haqida hikoyada nima deyilgan? Tulki nima uchun qopqonga yaqin keldi? Voqeа qayerda bo'lди? O'rmonda bo'lган voqeа hikoyaning qaysi qismida aytildi?

Endi o'qituvchi o'quvchilarga aralash berilgan gaplardan hikoya tuzishni va uni ana shunday boshlash lozimligini aytadi. O'qituvchi hikoyani yana bir marta qayta o'qiydi. O'qishdan oldin o'quvchilarga matnni diqqat bilan tinglashni, unda nechta gap borligini uqtiradi.

Shundan so'ng quydagi savollarga javob oladi:

— Matnda nechta gap bor? Nechta gap borligini qanday bildingiz? Gaplarning o'rnini o'zgartirish mumkinmi? Nima uchun o'zgartirish mumkin emas?

**Xulosa.** Hikoyada gaplar ma'lum tartib bilan beriladi. Shuning uchun gaplar tartibini o'zgartirish mumkin emas.

**Hikoya tuzish.** O'qituvchi yozuv taxtaga yozilgan gaplarni ochadi. O'quvchilar uni o'qiydilar. Hikoyadagi gaplarning joylashishida tartib yo'qligini aytadilar. Shundan so'ng suhbat o'tkaziladi.

— Hikoyadagi gaplar qanday joylashgan? Hikoya tuzish uchun nima qilish kerak? Tartibsiz berilgan gaplarni ketma-ket tartib bilan joylashtirish lozim.

Hikoyani qaysi gapdan boshlaysiz?

Undan keyin qaysi gapni yozasiz?

U qaysi tomonga yurdi? Tulki nimaga ilindi?

O'qituvchi o'quvchilar javobini tartib bilan yozib boradi. Bolalar hosil bo'lgan hikoyani o'qiydilar va aralash berilgan gaplardan mazmuniga qarab ketma-ket joylashtirilganliklarini aytadilar. Natijada matn yuzaga kelganligi haqida tushunchaga ega



M.Nurinboyev fotosi.

bo'ldilar.

#### Zarif va Zafar

Zarif ... yashaydi. U ... mehmonga bordi. Zafar bog'da ... kavlayotgan edi. Zarif Zafarga kartoshka ... yordam berdi. (17 so'z)

Qo'yish uchun so'zlar: shaharda, Zafarnikida, kartoshka, kavladi.

O'qituvchi oldindan sinf yozuv taxtasiga yozib, parda bilan yopib qo'yilgan matnni ochib, ifodali o'qiydi.

**Tahlil.** Zarif qayerda yashaydi? U kimnikiga mehmonga bordi?

Zafar nima qilayotgan edi? Zarif Zafarga qaysi ishda yordam berdi?

Endi yozuv taxtaga yozib qo'yilgan matn yana o'qiladi. Qo'yish uchun berilgan so'zlardan har bir gapga tegishlisi tanlanadi. Uni qayerga qo'yib o'qish tushuntiriladi. O'quvchilar so'zlarni o'rniga qo'yib, navbat bilan gaplarni to'ldirib o'qiydilar.

Natijada, o'quvchilar gapda tushib qolgan so'zlar o'rniga mazmuniga mos so'zlar qo'yib gap tuzishni bilib oladilar.

#### Nodirjon

Nodirjon — oilada rassom. U timmay rasm chizadi.

Nodirjon qog'ozni tejab (ayab) ishlataladi. U qog'ozni nondek aziz biladi. (16 so'z)

Ish «Tulki» matni singari olib boriladi.

#### Shifokor bo'ladi

Aziza ... keldi. Kiyimlarini .... Keyin idish-tovoqlarni .... Aziza ... yaxshi ko'radi. U ... bo'ladi. (16 so'z)

Qo'yish uchun so'zlar: maktabdan,

almashtirdi, yurdi, ozodalikni, shifokor.

Ish «Zarif va Zafar» matni singari olib boriladi.

#### Tug'ilgan kun

Ma'muraning ... kuni bo'ldi. Uni ... tabriklashdi. ... bilan ... gul keltirishdi. Ma'mura ... bo'ldi. (15 so'z)

Qo'yish uchun so'zlar: tug'ilgan, sinfdoshlari, Ma'ruf, O'ktam, xursand.

Ish «Zarif va Zafar» matni singari olib boriladi.

#### Musiqa maktabida

Dilshod musiqa maktabida o'qiydi. Do'stlari bilan yangi qo'shiq o'rgandi.

Maktabda O'zbekiston Armiysi kuniga atab kecha o'tkazildi.

Dilshod o'rgangan qo'shig'ini kechada aytib berdi. (22 so'z)

Ish «Bahorda» matni singari olib boriladi.

Shunday qilib, boshlang'ich maktabda ona tili o'qitishning maqsadi nutqda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, gapni to'g'ri tuzish va bog'lanishli nutqni puxta egallashga qaratilgandir.

Bolalar hosil qilgan og'zaki va yozma nutq malakalaridan kundalik amaliy nutqlarida fikr va tushunchalarini ifoda etishda foydalanishlari kerak.

Bunday ishslash o'quvchilarning qo'lyozma matnlarini o'qish ko'nikmalarini mustahkmailaydi, hikoya mazmunini tushunishlarini osonlashtiradi.

**Muhabbat UMAROVA.**

# OTA NEGA O'Z FARZANDIGA TANBEH BERADI?

*Inson hayoti davomida umr so'qmoqlaridan goh qoqilib, goho ildam qadamlar bilan odimlaydi. Hayotiy tajribasi ana shu so'qmoqlarda pishib yetiladi. Chor-atrofga, tegrasidagi voqelikka yanada teranroq, aql ko'zi bilan razm soladi, mukammallik sari intiladi. Alqissa, unga erishish yo'lli-yaxshilik, yaxshi insonlarga hamroh bo'lism, sabr, qanoat, halollik, umr bo'yil ilm olishdan iborat ekanligini anglab etadi. Mushtariyalarimiz e'tiboriga havola etilayotgan Obiddin Mahmudovning qalamiga mansub «Ota nega o'z farzandiga tanbeh beradi?» kitobidan keltirilgan ibratlari mushohadalar, Ota - Ustoz - farzand savol-javoblari insonning tafakkurini charxlab, hayotga yanada teranroq ko'z bilan qarashga undaydi. Muallif o'zining hayotiy kuzatishlari, ajoyib davralardagi diltortar suhabatlar, o'qigan kitoblaridan olgan taassurotlarini va chiqargan xulosalarini kitobchada ixcham tarzda ifodalaganki, uni o'qigan kishi ruhan yengil tortadi.*

## Hayot falsafasi

Vatan himoyachisi, avvalo, o'z g'ururi, oilasi sha'nini himoya qila oladigan mard, jasur, har qanday sharoitda vaziyatni to'g'ri baholaydigan, buyuk ne'mat - hayotning qadriga yetadigan, azmi qat'iy insondir.

Hayot misli bir ummon, unda sabru toqat, umidu ishonch bilan suzganlargina baxt sohillariga yetadilar.

\*\*\*

## Vatan ravnaqi...

Vatan uchun qayg'urish oliy ibodat... Zotan, kechayu kunduz, ishdaxizmatda, Vatandan yiroqda, diydor ko'rishganda va dasturxon atrofida Allohdan el-yurt osoyishtaligiyu farzandlar kamolini so'raymiz. Shuning o'zi, axir, ibodatning oliy ko'rinishi emasmi?

\*\*\*

Bu dunyoda kim-kimdan bezor bo'lganini bilmadim-u, lekin ona-Yer bizning isrofgarchiligmizdan, noinsoftoshukurchiligmizdan to'yganga o'xshaydi.

\*\*\*

Hayotda men noliyman, sen noliysan, u noliydi, so'ng Xudoyam shunga qarab beradi. Aytishadi-ku, har bir narsa niyatga yarasha, deb...

\*\*\*

Dunyoda qalb osoyishtaligidek, yurt tinchligidek huzurli onlarni bilmadim...

\*\*\*

## Yaxshilar borligi uchun...

Dunyoda yaxshilar borligi uchun yashaging keladi.

\*\*\*

Qiziq, odamzod bir umr Yaratgan dan boylik, amal, faravon hayot ato

etishini so'rab yalinib-yolboradi, ammo barchasining asosi bo'l mish aql ila fahm-farosatni so'ramaydi.

\*\*\*

Dedim: - Ota kim?

Dedi: - Yaratganning inoyati ila farzand dunyoga kelishiga sababchi, umrini surriyodlarini asrab-avaylab, voyaga yetkazishga bag'ishlagan zot.

Dedim: - Ona kim?

Dedi: - Yaratganning inoyati ila farzand dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan, surriyodlari uchun jonidan kechuvchi zot.

Dedim: - Ota nega farzandiga tanbeh beradi?

Dedi: - Boshqalar tanbeh bermasligi uchun.

Dedim: - Ota-onha yaqinmi, Ustoz yaqinmi?

Dedi: - Ikkisi ham. Ota-onaning yaqinligi - agarki, ular farzandiga ustozdek tarbiya bera olsa, Ustozning yaqinligi - xuddi ota-onadek shogirdiga nisbatan mehribon bo'lsa...

Dedim: — Har bir ota-onaning ezgu orzusi nima?

Dedi: - Komil farzandni voyaga yetkazish.

Dedim: - Bunga qanday erishiladi?

Dedi: - Asosan to'rt narsa - halol va mehribon ota-onha, qattiqqo'l va talabchan ustoz, samimiy va sodiq do'st, ma'rifat va ilm orqali erishiladi.

Dedim: - Otani nima ado qiladi?

Dedi: - Uch narsa: bolasining bevaqt o'limi, noqobil farzand va keksaygan chog'ida ahli ayoli hamda surriyodlaridan mehr-e'tibor ko'rmaslik.

Dedim: - Nima ko'nglini yuksaltiradi?

Dedi: - Uch narsa: Farzand tarbiyasi tufayli el-ulus oldida hurmatining yanada oshishi; nabirasida farzandiga bergen tarbiyani namoyon bo'lishi hamda surriyodlarining quvонchiga sheriklik.

Dedim: - Nimadan yumshoq va nimadan qattiqroq narsa yo'q bu dunyoda?

Dedi: - Ona mehridan, Ota qahridan...

Dedim: - Farzand nimani tanlolmaydi?

Dedi: - Vatanni, ota-onani, tug'ilish vaqtini, ismini.

Dedim: - Farzand uchun bu dunyoda eng og'ir gunohlar nima?

Dedi: - Ota-onaga oq bo'lish, xalq nafratiga uchrash, Vatanga xiyonat...

Dedim: - Ota-onha, elga xizmat qilgan farzand nimani topadi?

Dedi: - Izzat-ikrom, qalb sokinligi va ... benihoyat ajru savob!

Dedim: - Umrnma mazmuni nimada?

Dedi: - Uni behuda isrof etmasdan yashashda!

Dedim: - Isrof etmaslik deganda neni angloamoq darkor?

Dedi: - Umrni to'rt narsaga yo'naltirish: dunyoviy ilmlarni o'rganish hamda diniy ilmlardan boxabar bo'lish; halol kasb egasi bo'lish; ota-onha va el xizmatida bo'lislilik...

\*\*\*

To'rt narsa insonga hamisha pand beradi: o'z sog'ligiga nisbatan befarqlik; farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik; sinalmagan do'stga barcha siru sinoatlarni aytish; o'zgalarga zulm qilish.

# O'ZBEKCHA – RUSCHA

## LUG'AT

Qo'lingizdagi nashr haqida hikoya qilishdan avval «Lug'at» so'zining ma'nosi haqida tushuncha berishni lozim topdik. Lug'at - alifbo yoki ba'zi bir mavzular tartibida tuzilib, uning ma'nosini har taraflama yoritib beruvchi so'zlar to'plamidir. Ularning turlari ko'p.

Ana shulardan biri Respublika Ta'lif markazi tavsiya etgan «O'zbekcha-ruscha» lug'at bo'lib, u boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Bu 2216 ta so'zdan iborat qo'llanma «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan 2007 yilda 10000 nusxada chop etilgan. Suratlari, ko'rgazmali tuzilganligi bilan shu vaqtgacha chop etilgan o'zbekcha-ruscha lug'atlardan farqlanadi.

Kitobcha ikki asosiy qismidan iborat bo'lib, lug'at maqolalari va rasmlardan tashkil topgan. Lug'at maqolasi - bosh so'z va uning ma'nosini qayd etuvchi ruscha ekvivalentdan tuzilgan. Lug'atning so'zligi - alifbo tartibida berilgan va so'zlar boshlang'ich sinf o'quvchilari amalda qo'llashi mumkin bo'lgan, ular bilishi lozim deb hisoblangan so'zlardan tuzildi. So'zlikni tashkil etuvchi har bir so'z - bosh so'z deb ataladi.

Shu vaqtgacha nashr etilgan o'zbekcha-ruscha lug'atlarda tub so'z va qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar bosh so'z sifatida berilar edi. Yordamchi so'zlar bilan hosil qilingan **mehnat qilmoq, xursand bo'lmoq** kabi so'zlar, shuningdek, **yavob bermoq, kutib olmoq** kabi bir lug'aviy ma'no bildiruvchi, lekin



ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar **bosh** so'z sifatida emas, ular tarkibidagi asosiy so'z deb qaraluvchi so'z asosida tuzilgan lug'at maqolasi ichida berilar edi. Masalan, **mehnat qilmoq** fe'l'i **mehnat** so'zida tuzilgan lug'at maqolasida, **yordam bermoq** so'zi esa **yordam** so'zida tuzilgan lug'at maqolasi ichida berilar edi. Jumladan: **mehnat - trud, mehnat qilmoq - truditsya.**

Ushbu risola esa boshlang'ich sinf uchun mo'ljallangani bois, bunday birikmalar ham so'z sifatida berildi va har biri uchun alohida lug'at maqolasi tuzildi. Ya'ni:

Mehnat - trud  
Mehnat qilmoq - truditsya.  
Yordam - pomoshch  
Yordam bermoq - pomogat

Bulardan tashqari, boshlang'ich sinflar darsliklarda ko'p uchraydigan, ularning nutqida qo'llaniladigan o'quv qurollari kabi birikmalar ham o'z ornida, tarjimasi bilan berilgan.

Yozilishi bir xil, ammo ma'nosi boshqa bo'lgan shakldosh so'zlar bosh so'z sifatida rim raqami bilan alohida-alohida berilgan. Masalan:

ot - I loshad	II
ot - II imya	
bo'lmoq - I byt	
bo'lmoq - raspredelit, delit	II

Aziz o'quvchilar! Kitobchani mutolaa qilish vaqtida mualiflar tomonidan yozilgan «Lug'atning tuzilishi haqida» sarlavhali kirish so'ziga e'tibor qaratishingizni so'rardik. Unda aytishicha, lug'atning maqsadi, vazifasi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining imkoniyatidan kelib chiqib, ayrim ko'chma

ma'noli turg'un birikmalar (frazeologik iboralar) ma'nosi rasmlar vositasida izohlab berishga harakat qilingan.

Tuzuvchilar: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi Azim Xojiyev, O'z DJTU dotsenti Hadicha Muhiddinova. Taqrizchilar: professor, falsafa fanlari doktori, Uz VFA Til va adabiyot instituti bo'lim boshlig'i E.Begmatov, Toshkent shahridagi 60-maktab o'qituvchisi G. Akramova.

O'yaymizki, ushbu qo'llanma har bir kichik yoshdag'i maktab o'quvchisining kitob javonidan munosib joy oladi va ko'plab kitobxonlarning bilimiga bilim qo'shadi.

# QOLDIQLI BO'LISH

**Iroda Rahmatullayeva** - Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 24-umumta'l'm muktabida boshlang'ich sinflarga ta'llim berib keladi. Yosh, izlanuvchan muallima aksariyat darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslanib o'tadi. Bir-birini sira takrorlamaydigan, ijodkorlik ruhi singdirilgan qiziqarli mashg'ulotlari orqali o'qituvchi o'zining ajoyib iqtidori va noyob iste'dodini to'la namoyon eta oladi. Shundan bo'lsa kerak, uning o'quvchilarini ilm olishga ishtyoqlari juda baland. Sinfida samaradorlik ham, o'zlashtirish ham yuqori darajada. Quyida e'tiboringizga uning 3-sinflar uchun matematikadan «Qoldiqli bo'lism» mavzusidagi 1 soatlilik sayohat darsini havola etamiz. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur darsda muallima yo'l harakati belgilari asosida bolalarni «sayohat»ga olib chiqadi. Kichik sayohatchilar misol va masalalar yechish bilan birga yo'l harakati qoidalarini ham dars davomida o'rganib boradilar.

## Darsning maqsadlari:

### Ta'limiylar maqsad:

- a) o'quvchilarga ustunli ko'paytirish yo'llarini o'rgatish;
- b) ularni ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

### Rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarning og'zaki va yozma hisoblash malakalarini oshirish.

### Tarbiyaviy maqsad:

Bolalarni ona Vatananni sevish, tabiatni asrash ruhidha tarbiyalash. Ularni tejamkorlikka, o'quv qurollarini, muktab jihozlarini asrab-avaylashga, mehnat bilan topilgan narsalarning qadriga yetishga o'rgatish.

**Dars metodi:** Sayohat.

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi.

**Dars jahozi:** Mavzuga oid turli rasmlar, tarqatmalar, ko'rgazmali qurollar.

### Darsning borishi:

Sayohat darsi qatnashchilari «Navbatchi bekti»da to'xtaydilar.

Bu yerda quyidagi axborot ko'rsatuvchi belgi mavjud bo'lib, u to'xtab turish joyini bildiradi.



O'qituvchi navbatchi axborotini tinglaydi. Bolalar bilan turli mavzularda qisqacha savol-javob o'tkaziladi.

- O'zbekiston qachon mustaqil

bo'lgan?

- Vatanimiz ramzlarini sanab o'ting.
- 2007 yilimiz qanday nom bilan ataldi?
- «Ijtimoiy himoya» deganda siz nimani tushunasiz?

- Matematika faniga izoh bering.
- O'quvchilar savollarga birma-bir javob beradilar va sevimli fanini quyidagicha izohlaydilar:
  - Matematika fanlar ichra shoh, uning sirlaridan bo'layin ogoh.
  - Matematika har yerda kerak, uni bilish uchun aql ham kerak.
  - Matematika — aql gimnastikasi, uni puxta o'rgansang, sen hisobda ustasan.

Sayohatchilar yo'l-yo'lakay «O'tilgan mavzular» bekatida ham bir zumga to'xtaydilar. Ular bekatdagi belgiga ta'rif beradilar.



Bu buyuruvchi belgi bo'lib, aylanma harakatni bildiradi.

Belgi o'quvchilarni o'tilgan mavzularini mustahkamlashga buyuradi.

$$40 : 6 = 6 \text{ (4 q.)} \quad 25 : 4 = 6 \text{ (1 q.)}$$

$$23 : 7 = 3 \text{ (2 q.)} \quad 30 : 4 = 7 \text{ (2 q.)}$$

Kichik sayohatchilar navbatdagi «Boshqotirmalar bekti»ga yetib kelishadi. Ular bekatdagi maxsus belgi asosida ish yuritadilar.



Bu belgi imtiyoz belgisi bo'lib. «Yo'l bering» degan ma'noni anglatadi.

Belgi bilag'onlarga yo'l berishni so'raydi. Tengdoshlari ichida eng birinchi bo'lib misol va masalalarni yechgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

123	234	231	312
x 2	x 4	x 2	x 2
246	936	162	624

Va nihoyat, «Yangi mavzu» bekatiga ham yetib kelinadi.



Bu belgi ogohlantiruvchi belgi bo'lib, o'quvchilarni yangi mavzuni diqqat bilan tinglash lozimligi to'grisida ogohlantiradi. 2 va 3 xonali sonlarni bir xonali songa ko'paytirish yuzasidan dastlabki ma'lumot beriladi.

$$1) 26 \cdot 3 = (20 + 6) \cdot 3 = 20 \cdot 3 + 6 \cdot 3 = 60 + 18 = 78$$

x 3	78
-----	----

$$\begin{aligned} 2) 347 \cdot 2 &= (300 + 40 + 7) \cdot 2 \\ &= 300 \cdot 2 + 40 \cdot 2 + 7 \cdot 2 = 600 + 80 \\ &+ 14 = 694 \end{aligned}$$

347


$\times 2$

694

1176 -misol

Rasmlarning qanday qismi bo'yalgan? O'quvchilar chizmaga qarab javoblarini aytadilar.

Shundan so'ng bolalar «Dam olish bekti»da qisqa muddatga to'xtab o'tadilar.




Bu servis belgisi bo'lib, yo'lovchilar uchun maxsus dam olish joyi mavjudligini ko'rsatadi.

Sayohatchilar tez aytish va topishmoqlar aytib, aqlini charxlaydilar.

Ular «Mashqlar bekti»da quyidagi shartga amal qiladilar:

Bu ta'qiqlovchi belgi bo'lib, ko'rsatilgan joyda o'quvchilarga ayrim harakatlar, ya'ni misol va

masalalarni noto'g'ri ishlash, shuningdek, xatoga yo'l qo'ygan holda xunuk yozish ta'qiqlanishi buyuriladi.



Bolalar 1178-misolni yuqoridagi talablarga rioya etganlari holda yechadilar.

$$\begin{array}{cccccc} 137 & 223 & 344 & 29 & 19 \\ \times 2 & \times 4 & \times 2 & \times 3 & \times 5 \\ 274 & 892 & 688 & 87 & 95 \end{array}$$

Sayohatchilar «Ijodiy ishlar bekti»da o'z faoliyatini yana davom ettiradilar.



Bu imtiyoz belgisi bo'lib, u asosiy yo'lni bildiradi.

O'quvchilarning mustaqil fikrlash va hisoblash malakasini oshirish bosh

masqad qilib qo'yilgani holda ularga misol va masalalar yechish topshirig'i beriladi.

4; 3; 5 - sonlardan ixtiyoriy son tuzish va uni 3 ga ko'paytirish.

$$\begin{array}{ccc} 435 & 453 & 354 \\ \times 3 & \times 3 & \times 3 \end{array}$$

$$\begin{array}{ccc} 345 & 534 & 543 \\ \times 3 & \times 3 & \times 3 \end{array}$$

Va nihoyat, o'quvchilar eng so'nggi «Uyga vazifa bekti»ga ham etib kelishadi.



Bu imtiyoz belgisi bo'lib, mazkur joyda to'xtamasdan harakatlanish ta'qiqlanadi. O'quvchilar belgiga qarab sayohatlari tugaganligini, ya'ni dars o'z yakuniga yetganini bilib olishadi.

Uyga vazifa qilib 1182-, 1183-misol va masalalarni yechib kelish beriladi. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilarning baholari e'lon qilinadi.

# Boshlang'ich ta'lif



Ilmiy-metodik,

axloqiy-ta'limi

ommabop jurnal

2008 yil uchun obuna bo'lishni unutmang!

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi

Korxona va tashkilotlar uchun umumiylashuv nashr indeksi

802  
803

## MUQOVAMIZDA:

BIRINCHI BETDA: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 160-maktabning tashabbuskor, izlanuvchan boshlang'ich sinf o'qituvchisi Aziza Yo`Idosheva dars mashg`uloti vaqtida.

IKKINCHI, UCHINCHI, TO'RTINCHI BETLARDA: Poytaxtimizdaagi 160-maktab hayotidan lavhalar. M.Nurinboyev fotolari.

Jurnal mакети тарзиратнинг компютер бо'лимida тайорланди.

*Badiiy muharrir - T. Salohov. Sahifalovchi - M. Fayziyeva. Navbatchi muharrir: T.Soliyeva.*

Obunaga monelik ko'rsatilsa yoki jurnal o'z vaqtida qo'lingizga yetib bormasa, Respublika Matbuot tarqatish markaziga (700000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 1-tor ko'cha, 2-uy) murojaat eting.

Bosishga 2007 yil 15.11. kuni ruxsat etildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Qog'oz hajmi shartli 6 bosma taboq. Nashriyot hisobida 6,75 bosma taboq. Tiraji: 8520  
ж-5-buyurtma.

«AVTO-NASHR» sh'oba korxonasi bosmaxonasi.  
100128, Toshkent shahri, U. Yusupov ko'chasi, 3.